

YANGI

O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 51 (1112), 2024-yil 12-mart, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

O‘ZBEKISTON
XALQIGA TABRIK

Qadrlı vatandoshlar!

Butun Yer yuzidagi islom ummati bilan birga jonajon O‘zbekistonimizning barcha mo‘min-musulmonlari ham qutlug‘ va muborak Ramazon oyini xursandchilik bilan kutib oldilar.

Dunyo musulmonlari uchun eng aziz va qadrlı bo‘lgan, barcha ezgu niyatlar ijobat bo‘ladigan Ramazoni sharifning kirib kelishi bilan siz, azizlarni, butun xalqimizni chin yurakdan muborakbod etib, barchangizga o‘zinning yuksak ehtiromim va samimiy tilaklarimni izhor etaman.

Avvalo, qalblarimizga iymon nurini bag‘ishlaydigan ushbu ulug‘ ayyomni yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik muhitida, oilamiz, el-yurtimiz davrasida kutib olayotganimiz uchun Parvardigori olamga cheksiz shukronalar aytamiz.

Ma‘naviy poklanish, sabr-qanoat, xayr-u saxovat fazilatları ziyoda bo‘ladigan mohi Ramazonni milliy an‘ana va qadriyatlarimizga mos, yuksak darajada o‘tkazish, yurtimiz musulmonlarining ibodat amallarini emin-erkin ado etishlari uchun barcha sharoitlar yaratildi.

“Inson qadri — ulug‘” degan olijanob tamoyilimizdan kelib chiqqan holda, mazkur fazilatli oyda xalqimiz manfaatlarini ta‘minlash, yosh avlodimizni bilim-ma‘rifat, yaxshi xulq-odob sohiblari etib tarbiyalash, ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, jamiyatimiz,

el-yurtimiz o‘rtasida mehr-oqibat va o‘zaro hurmat muhitini mustahkamlash, muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar, qabristonlarni obodonlashtirishga qaratilgan savobli ishlarimiz yanada ziyoda bo‘ladi, deb ishonamiz.

Zero, hadisi shariflarda zikr etilganidek, **bu oyda qilingan birgina yaxshilik o‘n karra mukofot bo‘lib qaytadi.**

Ming afsuski, bugun dunyoning bir qancha mintaqalarida notinchlik, qarama-qarshilik va to‘qnashuvlar sodir bo‘lmoqda, begunoh insonlarning qoni to‘kilmogda. Biz butun xalqimiz bilan birga yaratgan Egamdan dunyoda tinchlik va osoyishtalik qaror topishini, go‘zal diyorimizdagi tinch-osuda hayot bardavom bo‘lishini chin dildan so‘rab, Qadr kechalarda ixlos bilan duolar qilamiz.

Fursatdan foydalanib, ushbu shukuhli lahzalarda dunyo mo‘min-musulmonlarini, do‘st va hamkorlarimizni muqaddas Ramazon oyi bilan samimiy qutlab, ularning davlatlari va xalqlariga tinchlik-omonlik, ravnaq va farovonlik tilaymiz.

Ramazoni sharif el-yurtimizga qut-baraka, har bir xonadonga shod-u xurramlik, yangi yutuq va omadlar olib kelsin!

Ramazon oyi yana bir bor barchamizga muborak bo‘lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

SAMIMIY
QUTLOVLAR

Ruhiy poklanish, yaxshi amallarni ado etish, jamiyatda muruvvat, mehr-shafqat va ezgulik kabi qadriyatlarni qaror toptirishga intilishni o‘zida mujassam etgan, barcha musulmonlar uchun muborak Ramazon oyi kirib kelishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga xorijiy mamlakatlar yetakchilari, hukumatlar, nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari, taniqli jamoat va din arboblardan qutlovlar kelmogda.

Xorijiy hamkorlar mamlakatimizning ko‘p millatli xalqiga tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tilaklarini izhor etib, ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlashga tayyorligini tasdiqlagan.

Jumladan, quyidagilar o‘z tabriklarini yo‘llagan:
Misr Arab Respublikasi Prezidenti **Abdulfattoh as-Sisi**;
Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti **Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon**;
Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubay amirligi hokimi **Shayx Muhammad bin Roshid Ol Maktum**;
Eron Islom Respublikasi Prezidenti **Ibrohim Raisiy**;
Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti **Sadir Japarov**;
O‘mon Sultoni **Haysam bin Toriq Al Said**;
Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi **Abdulla II**;
Bahrayn Podshohi **Shayx Hamad ibn Iso Al Xalifa**;
Falastin Davlati Prezidenti **Mahmud Abbas**;
Islom hamkorlik tashkiloti bosh kotibi **Husayn Ibrohim Toha**;
Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi **Kubanichbek Omuraliyev**;
Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bosh kotibi **Husrav Noziriy**;
“Al-Azhar” majmuasi rahbari **Shayx Ahmad At-Toyyib**.

Qutlovlar kelishda davom etmoqda.

KO‘P QIRRALI HAMKORLIKNI
YANADA KENGAYTIRISH
MUHIMLIGI TA‘KIDLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev 11-mart kuni Birlashgan Arab Amirliklari
Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon bilan
telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Prezident Shayx Muhammad Ol Nahayonni tavallud kuni bilan dildan qutlab, unga mustahkam sog‘liq va baxt-saodat, faoliyatida katta muvaffaqiyatlar, do‘st Amirliklar xalqiga tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tiladi.

Ikki mamlakat yetakchilari butun musulmon olami uchun muqaddas bo‘lgan muborak Ramazon oyining boshlangani bilan ham bir-birini samimiy tabrikladilar.

O‘zbekiston bilan BAA o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik bugungi kunda yuksak darajaga chiqqani katta mamnuhiyat bilan qayd etildi.

2023-yil yakuniga ko‘ra, o‘zaro savdo hajmi 20 foizga oshdi. O‘zbekistonda

Amirliklar sarmoyasi ishtirokida 300 dan ortiq korxona faoliyat yuritmoqda, qo‘shma loyihalar portfeli 4 milliard dollardan oshdi. Bundan tashqari, yuqori texnologiyalar, energetika, geologiya, qishloq xo‘jaligi, turizm, IT, infratuzilma, logistika va boshqa sohalarda istiqbolli loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Tomonlar amaliy hamkorlikni barcha yo‘nalishlarda faollashtirishga tayyor ekanini tasdiqladilar. Bo‘lajak oliy darajadagi uchrashuvlarning kun tartibini puxta tayyorlash muhimligi ta‘kidlandi.

O‘ZA

Inson qadri uchun

IJTIMOIY
ADOLAT MEZONI

*Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka‘ba vayron bo‘lsa, obod aylagay.*

Hazrat Navoiyning mazkur shohbaytini ko‘p takrorlaymiz. Ammo doim ham uning asl mohiyatini teran his etavermaymiz. Aytish kerak, shod bo‘lgan ko‘ngil sohibining taqdiri biz tasavvur qila olmaydigan darajada o‘zgaradi.

Mamlakatimizda inson qadriini ulug‘lash, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan siyosat zamirida shu kabi hayotiy haqiqat mujassam. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida ijtimoiy himoyani yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan qator vazifalar belgilab berilgan. Ayni paytda mazkur yo‘nalishdagi ishlar boshlab yuborilgan. Xususan, mahallalarda xatlov o‘tkazilib, aholi ijtimoiy holatiga ko‘ra toifalarga ajratildi. Endilikda ularning toifalariga qarab, amaliy yordam berish choralari ko‘rilmogda.

Ma‘lumki, Prezidentimiz shu yil 20-fevral kuni ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida har bir oila va inson taqdiriga alohida, professional yondashish lozimligini ta‘kidladi.

Yig‘ilishda ijtimoiy xizmat va yordamni mahalla darajasida tashkil etish masalalari



ko‘rib chiqildi. Masalan, ijtimoiy himoya tizimi bilan 250 ta xizmat qamrab olingan bo‘lsa-da, mahalladagi aholi ularning yarmini ham bilmaydi.

Davomi 3-betda

Shukuh

RAMAZON OYI FAYZ-U
BARAKALI BO‘LSIN!

Bismillahir rohmahir rohim.

Xayru saxovat, mehr-oqibat, silai rahm mavsumi bo‘lmish Ramazon oyini ato qilgan Alloh taolaga hamdu sanolarimiz bo‘lsin!
Ramazonni chinakam yaxshilik oyi sifatida o‘tkazishda ummatga namuna bo‘lgan suyuqlik payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamga salavotu salomlarimiz bo‘lsin!

Butun islom ummatini, xususan, aziz xalqimizni muborak Ramazon oyi kirib kelishi munosabati bilan samimiy muborakbod etamiz. Alloh taolo bu fazilatli ayyomni butun dunyo uchun tinchlik-osoyishtalik, farovon hayot va ikki dunyo saodatiga eltuvchi oy qilsin!

Alloh taolo Ramazon ro‘zasi haqidagi oyati karimada bunday marhamat qiladi:

“Ey iymon keltirganlar! Sizlardan avvalgilarga farz qilinganidek, sizlarga ham ro‘za farz qilinadi. Shoyadki taqvodor bo‘lsalarigiz” (Baqara surasi, 183-oyat).

Davomi 2-betda

Transport infratuzilmasi

DUNYODA SANOQLI,
MARKAZIY OSIYODA YAGONA

Toshkent metropolitenining jami xizmat ko‘rsatuvchi stansiyalari soni
50 taga yetdi, uzunligi esa 70 kilometrdan oshdi

Kecha ertalabdan Toshkent metropolitenidagi Yer usti halqa yo‘lining yangi ikkita bekati — “Turon” va “Qipchoq” yo‘lovchilar uchun xizmat ko‘rsatishni boshladi. Ularda o‘tgan yil 15-dekabrda sinov tariqasida (yo‘lovchilarsiz) poyezdlar harakati yo‘lga qo‘yilgan edi. Oradan qariyb 2,5 oy o‘tib, endi metro bekatlari to‘la faoliyat ko‘rsatishga kirishdi.

Qipchoq bekati. U Sergeli bilan Yangiayot tumanlarini tutashtirgan chorraxada joylashgan. Yo‘lining bir tomoni ko‘p qavatli turar joylardan iborat bo‘lsa, ikkinchi tomonida aholi xonadonlarini o‘z ichiga olgan mahallalar joylashgan.

Mazkur bekat ham ikki qavatli, pastki qismi maxsus elektr energiyasi, aloqa tizimi hamda yong‘in xavfsizligi xonalari, shuningdek, tibbiyot punkti, ishchi-

xodimlar xonasi va chiptaxonalardan iborat. Perron ikkinchi qavatda bo‘lib, umumiy uzunligi yuz metrdan oshadi. Uni qurishda zamonaviy va mustahkam, uzoq muddatga chidamli mahalliy ashyolardan, tom qismini barpo etishda shahar iqlimiga mos issiq va sovuqdan saqlovchi qurilish mahsulotlaridan samarali foydalanildi.

Davomi 4-betda



Hakim Xo‘lidoshev olgan suratlardir.

MULOHAZA

**UYG‘ONMAS EKANMIZ,
FARZANDLARIMIZNI
O‘ZGALAR “UYG‘OTADI”
yoxud ma‘naviyatdan
yiroqlashgan qalblarni
yovuzlik egallaydi**

Ota-onalari va oila a‘zolari bilan kam muloqot qilish oqibatida bolalar internetga berilib ketib, ular diqqatni jamlash va fikrlash ko‘nikmalarida kechikadi.

5-betda o‘qing.

Shukuh

RAMAZON OYI FAYZ-U BARAKALI BO'LSIN!

Shayx Nuriddin XOLIQAQAZAR,
O'zbekiston musulmonlari
idorasi raisi, muftiy

Boshlanishi 1-betda

Bu oyda har bir musulmonning odob-u axloqi sayqallanadi. Taqvosi ziyoda bo'ladi. Buning sababidan jamiyatda yaxshi kayfiyat, ahillik va birdamlik hukm suradi.

Hazrat payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bu muborak oyni g'animat bilishga chorlab, bunday deganlar: "Sizlarga Ramazon oyi keldi. U muborak oydir. Alloh sizlarga uning ro'zasini farz qildi. Unda jannat eshiklari ochiladi, do'zax eshiklari yopiladi, shaytonlar kishanlanadi. Unda ming oydan yaxshi kecha bor. Kim uning yaxshiligidan mahrum bo'lsa, batahqiq, (barcha yaxshiliklardan) mahrum bo'libdi". (Imom Ahmad rivoyati).

Alloh taolo oylar ichida Ramazonni fazilatli qildi. Bu oyda Qur'on nozil bo'lgan, ro'za tutish farz qilingan. Ro'za tanaga ham, ruhga ham fayz-u quvvat bag'ishlaydi. Ushbu oyda Allohga har qachongidan-da yaqinlashish, ulug' ajru mukofotlarga sazovor bo'lish imkoniyati ko'p.

Bu oyda Yer yuzining turli tarafidagi musulmonlar musharakat qarash va ezu maqsad bilan birlashadi. Shubhasiz, Qur'on xatmi, taroveh va iftorliklar musulmonlarni



yanada jipslashtiradi, mehr-oqibat, dinu diyonatni shakllantiradi.

Imom Tabaroniy Uboda ibn Somit roziyallohu anhudan rivoyat qilgan hadis shariifda: "Sizlarga baraka oyi — Ramazon keldi. Unda Alloh sizlarni behojat qiladi, rahmatini nozil qiladi, xatolarni o'chiradi, duolarni ijobat qiladi", deya marhamat qilinadi.

Davlatimiz rahbarining yaqinda e'lon qilingan qarorida xalqimiz uchun ezgulik, birdamlik, olijanoblik va shukrona timsoli bo'lgan qutlug' Ramazon oyini munosib kutib olish va yuqori saviyada o'tkazish, diniy-ma'rifiy, madaniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash hamda ulug'lash bo'yicha qator vazifalar belgilangani barcha yurtdoshlarimizni behad xursand qildi.

Alloh taologa shukr, yangi O'zbekistonda barcha soha qatori diniy-ma'rifiy jabhada ham salmoqli ishlar qilindi. Ayniqsa, masjid-madrasalar ko'payayotgani, Qur'oni karimni o'rgatish kurslari faoliyati, haj, umra qiluvchilar soni oshayotgani va allomalarga ehtirom ko'rsatilib, asarlari ona tilimizga tarjima qilinayotgani barchani mamnun etdi.

Mir Arab madrasasining 500 yilligiga bag'ishlangan anjuman ishtirokchilari — taniqli muftiylar, zabardast ulamolar va olim-professorlar mamlakatimizdagi tarixiy o'zgarishlarni yuqori baholadi. Yurtimiz ulamolarining nufuzli islomiy tashkilotlarga a'zo bo'lishi diniy-ma'rifiy islohotlarning musulmon dunyosi tomonidan yuksak e'tirof etilishi bo'ldi. Bularning barchasi mamlakatimizda vijdon va e'tiqod erkinligini ta'minlash, diniy-ma'naviy, ilmiy-ma'rifiy, umuminsoniy qadriyatlarini e'zozlash yo'lidagi sa'y-harakatlarning yorqin ifodasidir.

Ramazon oyida mehr-oqibat yanada ziyoda bo'ladi. Shu sababli xalqimiz bu oyning barakasidan har bir uy bahramand bo'lsin, mo'minlar qalbiga shodlik kirsin deb ko'proq xayr-saxovat qilishga, zakot berishga oshiqadi.

Ayni kunlarda ijtimoiy himoya sohasida keng ko'lamli ishlar boshlandi. Kam ta'minlangan oilalar, nogironligi borlar, yetimlarga yordam berish, kasb-hunar o'rgatish, ularni o'qitish va ishga joylashtirish borasida ham aniq va manzilli chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Biz — ulamolar bu yil Ramazon oyini yurtimizda mehr-muruvvat, xayr-u saxovat mavsumiga aylantirishni o'zimizga shior qilib



oldik. Toki qutlug' oyda har bir xonadon, har bir kishining qalbiga xursandlik kirib borsin. Shunda murosulimiz hosil, Yaratgan bizdan rozi, xalqimiz har yili Ramazonni orziqib kutadigan bo'ladi, inshaalloh.

Aziz xalqimiz, ayniqsa, saxovatli do'stu birodarlarimiz bu oyda imkon qadar xayriya ishlarini ko'paytirsin, yurtimizda ehtiyojmand kishi qolmasin, har bir uyda shodlik, quvonch muhiti hukm sursin.

Binobarin, insoniyatga yuksak namuna bo'lgan hazrat payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bu oyda boshqa oylarga qaraganda saxiroq bo'lar edilar. Ibn Abbas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam odamlarning eng saxiroq edilar. Ayniqsa,

Ramazon oyida yanada saxiro bo'lib ketar edilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam yaxshilikda shiddat bilan esayotgan shamoldan-da uchqur edilar" (muttafaqun alayh).

Shunday ekan, umid qilamizki, qo'li ochiq, saxovatpesha yurtdoshlarimiz nogironligi bor shaxslar, yolg'iz keksalar, boquvchisini yo'qotganlar hamda kam ta'minlangan oilalarga mehr-muruvvat qo'lini cho'zadi, bemorlar holidan xabar olib, ko'ngillarini ko'tarishda peshqadam bo'ladi.

Bu yil 2 mingdan ziyod masjidda taroveh namozi ado etiladi. Shundan 1 ming 600 tasida Qur'on xatm qilinadi. Ramazon oyining 27 kuni davomida masjidlarda kalomullohning sahifalari bir xil adadda o'qiladi.

Alloh nasib etsa, barcha masjidda Ramazon oyining yigirma yettinchi kechasi, ya'ni Qadr kechasi kuni Qur'on xatmi yakunlanib, bir vaqtning o'zida bir necha million yurtdoshimiz Haq taologa duo qiladi. Mana shunday jamuljam iltijo ijobatidan yurtimiz yanada ravnaq topadi, hayotimiz farovon bo'ladi. Yurtimizga ilohiy nur, baraka yog'iladi, inshaalloh.

Hadisi shariifda "Ro'zadoming duosi maqbuldir" deyiladi. Shuning uchun ham bu qutlug' oyda chin qalbdan, astoydil dunyo va oxirat saodatini so'rab duo qilishimiz kerak.

Alloh taolodan ushbu qutlug' oyda aziz xalqimizga mustahkam sog'liq, bitmas-tuganmas kuch-quvvat, oilaviy baxt-saodat va faoliyatida ulkan zafarlar yor bo'lishini so'raymiz. Yaratganning O'zi yurtimizni turli bala va ofatlardan omon saqlasin.

Parvardigori olam yurtimiz tinchligini barqaror, xalqimiz hayotini bundan-da farovon, muborak Ramazonidagi xayrli ishlarini yil bo'yi bardavom qilsin. Niyati pok, maqsadi ulug' xalqimizning, har bir mo'min-musulmonning duo va iltijolari ro'yobga oshsin!

Muborak Ramazon oyi bilan barcha mo'min-musulmonlarni, aziz xalqimizni yana bir bor samimiy qutlaymiz.

Barchamizga fazilatli Ramazon oyi muborak bo'lsin!

Vassalomu aleykum va rahmatullohi va barokatuhu.

Kun mavzusi

Qish oxirlab, ko'klam epkinlari kirib kelishida yuz bergan noqulay ob-havo dehqon va tomorqa egalari bir oz tashvishga solgani bor gap. Sababi, umid bilan ekilgan sabzavot ko'chatlarining nobud bo'lishi ertaki mahsulotlar salmog'i, sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy.

XAVOTIRGA O'RIN YO'Q...MI?

— Xavotirga o'rin yo'q, — deydi tomorqa issiqxonasida bodring ko'chatlari parvarishi bilan andamon bo'lgan Abdurashid Tojaliyev. — Har qanday ob-havoga oldindan taraddud ko'rib qo'yganimiz. Issiqxonamizda termos, ya'ni qo'shimcha plyonka bilan himoyalash usulini joriy qilgandik. Bu ortiqcha isitish tizimlari va xarajatlarsiz ekinni sovuqdan asrash imkonini bermogda. Ko'chatlarni fevralning so'nggi haftasida ekkannmiz. Bahor avvalidagi ob-havo injqliklaridan yaxshi himoyalandi.

Ikki ming tupdan ortiq ko'chat yaproq yozib, gullash arafasiga kelgan. Hovliga tutashgan yana bir issiqxonada esa sadaf tishdek terilgan egatlarda bir vaqtning o'zida ikki xil sabzavot parvarishlanyapti. Ulardan biri dengiz karami bo'lsa, boshqasi qizil lavlagi.

— Dengiz karami ko'chatlari 5-6 darajagacha sovuqqa chidamli, — deydi tajribali tomorqachi. — Bu navlar yuqoriga bo'y olgani uchun egatlardagi boshqa sabzavot ekinlari rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Natijada bir ariqda ikki xil hosil olish imkoniyati yaratiladi. Aprel oyining dastlabki o'n kunligida dengiz karamlarini yig'ib olsak, qizil lavlagi rivoji yanada tezlashadi. May oyida uchinchil hosil — pomidor ekamiz. Mehnat qilib, kam bo'lganimiz yo'q. Shinam uy-joy, to'yu tomoshalar barchasi ana shu izlanishlarimiz mahsuli. Bitta oilaga bundan ortiq yana nima kerak?

Rishton tumanidagi "Qayrag'och" mahalla fuqarolar yig'inida aholi tomorqa xo'jaliklarida ommalashgan tajriba — plyonka ostida arzon va sifatli sabzavot ekinlari yetishtirish imkonini bermogda. Natijada issiqxonada turli sabzavot va ko'chat yetishtirish rivojlanib, tomorqadan bir yilda uch-to'rt marta hosil olinmogda.

— Yaqin-yaqinlargacha barmog bilan sanarli issiqxonalarda sabzavot yetishtirilgan, — deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Valijon Mahkamov. — Bugun 500 dan ortiq xonadonning deyarli har birida issiqxona bor, desam mubolag'a bo'lmaydi. O'tgan yilning o'zida bu maqsadlar uchun 115 million so'mdan ortiq kredit berildi. Umumiy qiymati 10 milliard so'mdan ortiq sabzavot mahsulotlari ichki va tashqi bozoraga sotildi. Bu yil hosil salmog'i yanada yuqori bo'lishini ko'zlab turibmiz. Mahallamizda tomorqalar uchun suv yetishmasligi bilan bog'liq holat bor edi. Joriy mavsumda bu boradagi muammolarga yechim topildi. Mahalla bilan hamjamiatlarda 5 kilometr uzoqdan yangi suv tarmog'i tortib keldik.



BIR MAVSUMDA BIR "DAMAS"

G'ulomjon Mahkamov tomorqachilikda ko'pga ibrat bo'layotgan yoshlardan. Tartib bilan ekilgan turli mevali daraxtu tok ko'chatlari hayratingizni oshiradi. Tomorqada maxsus issiqxona yo'q. Lekin sabzavot ekinlarini yer ustiga to'shlangan plyonka ostida parvarishlashda yaxshi tajriba to'plangan. Yanvar oyining 15-kuni uch sotix yerga plyonka ostiga qadalgan qizil lavlagi bugun hosil nishonalaridan darak berib turibdi. Ikki sotix maydonda 3 ming tupdan ortiq ertaki karam parvarishlanyapti. Faqat ko'chatga moslab qurilgan issiqxonada 10 ming pomidor ko'chati yetishtirilyapti.

— Ekinlarni yer betlatib tortilgan plyonka ostida parvarishlash har jihatdan qulay, — deydi tomorqachi. — Bu usul sabzavot ko'chatlarini sovuq ob-havo va shamoldan saqlashda yaxshi samara beradi. Ekin maydoniga erta ko'chat ekishga alohida hozirlik ko'ramiz. Asosan, mahalliy o'g'itlardan foydalanamiz. Bu mavjud issiqlikni uzoq saqlash va tashqarida yuzaga kelgan issiq harorat bilan to'yintirishda qo'l kelyapti. Har yili shu andaza asosida ertaki sabzavotlar yetishtiryapmiz. O'tgan yili bir mavsumda olgan daromadim hisobiga yangi avtomashina xarid qildim. Bu yil ota-onamni hajga yo'natishni maqsad qilganman.

QALAMPIR QIRQ YILLIK QARZNI UZADI

Xalq ta'biri bilan aytilgan bu fikr zamirida hamjihatlik, halol mehnat va izlanishlar mujassam. Bu qadim an'anaga amal qilib mehnat qilayotgan Munavvar opa To'ychiyeva aslo kam bo'layotgani yo'q.

Issiqxonada baravj rivojlanayotgan qalampir ko'chatlari hosilga kirgan. Mahsulotning bozori chaqqon. Bir kilo hosilning ulgurji bahosi 115-120 ming so'mdan sotilyapti.

Albatta, bu aytishga oson. Munavvara opa bu hosilni yetishtirish yo'lidagi necha-necha tunlarni besor o'tkazgan. Qishning qahraton sovg'idan asrab-avaylashga harakat qilgan. Bugun ana shu mehnat va izlanishlari samarasidan bahra olmogda.

Issiqxona muqobil yonilg'i asosida isitiladi, tomchilatib sug'orish tizimiga ulangan. Eng muhimi, jarayonning barchasiga ellik yoshni ortda qoldirgan usta ayol bosh-qosh.

— Farzandlarni o'qitish, uyli-joyli bo'lishida tomorqadan kelayotgan daromadning o'rni katta, — deydi mirishkor. — Tomorqa hamisha to'kinlik va farovonlik manbai bo'lgan. Umid bilan urug' qadagan kishi mehnatining ajrini, albatta, ko'radi. Bu hayot haqiqatini farzand va nabiralaringa o'rgatishga harakat qilaman. Mehnat qilgan odam aslo kam bo'lmaydi-da.

Tomorqa xo'jaligidan maqsadli foydalanish bilan bog'liq bunday ibratli ishlarni qishloqning har bir xonadoniga uchratasiz. Buni asl tomorqachilar bilan bo'lgan suhbatlarda his qildik. Hamma tomorqa yumushlari va obodonchilik bilan andamon. Qo'l qovushitirib, ko'chalarni "to'ldirib" o'tirgan yalqovlarni uchratmaysiz.

Qishloq ko'chalari kimsasiz bo'lib ko'rindi. Ko'nglimizdan kechgan savolni anglagan mahalla raisi suhbat asnosida qo'shib qo'ydi: "Bu yerda bekor yurgan odam, bo'sh qolgan tomorqa yo'q".

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri
Sherzod Qoraboyev olgan suratlar.

Yangicha yondashuvlar

UY SHAROITIDA QO'ZIQORIN BIZNESI

ham salomatlikka, ham cho'ntakka foyda

Bulung'ur tumanining Yangiobod mahallasida yashovchi Otaqulovlar xonadonini qo'shni qishloqlardan so'roqlab keluvchilar safi kengayib bormogda. Boisi, ushbu oila uy sharoitida qo'ziqorin yetishtirish borasida ancha tanilgan.

Ergash ota Otaqulov ayni paytda nafaqada. Qo'ziqorin yetishtirishni ijtimoiy tarmoqlar orqali ko'rib, qiziqib qoldi va sir-asrorlarini o'qib, o'rgandi. Hovlisida bo'sh turgan binoda yetarlicha shart-sharoit hozirladi. Ayni paytda bu yerda qo'ziqorinning "veshinka" navini parvarishlamogda. — Tabiatda zamburug'larning 100 mingdan ortiq turi uchraydi. Qo'ziqorin ham shulardan biri. Qo'ziqorin yetishtirishga qiziqishi bo'lgan kishilardan maslahatimiz, ko'magimiz, tavsiyalarimizni ayamayapmiz, — deydi E.Otaqulov. — O'zimiz uch-to'rt yildan buyon shu ish bilan shug'ullanib, kam bo'layotganimiz yo'q. Qo'ziqorinning



"veshenka" navi juda foydali va oqsilga boy. Xaridorlari ham ko'p. Afzallik tomoni, uni yil davomida yetishtirib, daromad olsa bo'ladi, mavsum tanlamaydi.

Urug' qopga qadalgach, bir oy 22 daraja haroratda ushlab turiladi. Me'yordan oshib ketsa, qurib qolishi mumkin. Bunda namlik darajasiga ham e'tibor qilish lozim. Urug'lar nish otgach, havo haroratini 16-17 darajada ushlab turish, shuningdek, har kuni ikki maldal suv sepsish kerak. Hosil 30-35 kunda tayyor bo'ladi.

Qish yakunlanib, bahor keldi. Tabiiyki, endi havo isiy boshlaydi. Bunday holatlarda me'yorni ushlab turish uchun ventilyatsiyadan foydalanib, issiqxonani tez-tez shamollatib turish zarur.

Har qopchadan 2-3 kilogramm iste'molboq qo'ziqorin olish mumkin. Zamonaviy tibbiyotda uning tabiiy insulin va fermentlarga boyligi aniqlangan. Shu bois, uni ko'pincha qandli diabet kasalligiga yo'liqqan bemorlar xarid qiladi.

— Bizda aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanadi, — deydi

mahalla fuqarolar yig'ini raisi Mahmudjon Oxunjonov. — Keyingi yillarda tomorqa xo'jaligiga, tadbirkorlikka berilayotgan e'tibor tufayli bunday oilalar soni ko'paymogda. Mahalladagi Umrozoqovlar xonadoni ham uy sharoitida qo'ziqorin yetishtiradi. Uch mingdan ortiq aholi yashayotgan hududda bu oiladan ibrat olish niyatidagi fuqarolar oz emas. Ularga bu borada Mehrinisa Umrozoqova ko'magi, maslahati asqatmogda.

Hovlidagi qurilishi poyoniga yetmagan binoda qo'ziqorin yetishtirishga kirishgan oila ikki-uch yil ichida muayyan tajriba to'pladi.

— Uyda qo'ziqorin yetishtirishning qiyinchiligi yo'q, — deydi uy bekasi Mehrinisa opa. — Bu — ayollarbop ish. Qo'ziqorindan bir yilda to'rt-besh marta hosil olish mumkin. Daromadli ham yaxshi. Sarflagan bir so'mingiz uch so'm bo'lib o'zingizga qaytadi. Qolaversa, qo'ziqorin go'sht o'rmini bosadigan, turli kasalliklarga shifo ne'mat sanaladi. Qo'ziqorinni dastlab xonalarda yetishtirgan bo'lsak, hozir issiqxonada parvarishlayapmiz. Ayni paytda bu yerda uch yuzta qopimiz bor. Bulardan har uch kunda yigirma kilogramm hosil olamiz. Ularni Samarqandga olib borib, kafe, restoran va do'konlarga tarqatamiz. Bundan har oyda yaxshigina daromad topyapmiz. Misol uchun, bitta qopimiz barcha xarajati bilan 25 ming so'mga tayyor bo'ladi. Me'yorda yetishtirilsa, bitta qopdagi urug' uch oy davomida kamida 5 kilogramm hosil berishi mumkin. Ya'ni sarflagan 25 ming so'm 125 ming so'm bo'lib qaytadi. Bekorchilikni xush ko'rmayman. Shu sababli qo'shni ayollar ko'chada bekor qolganini ko'rsam, ularni nimadir qilishga chaqiraman. Besh-olti oy avval mahalladagi ishsiz ayollarga shu yumush bilan shug'ullanishni taklif qildim. "Mehnatni og'ir emas, yaxshi e'tibor berib, suv sepib tursangiz bo'ldi", dedim. Dastlab ikkita qo'shnim boshladi. Hozir ularning qo'ziqorini hosil bermogda. Ular bilan doim aloqadamiz, tushunmaganlarini o'rgatib, maslahat berib turibmiz. Kelgusida issiqxonani yanada kengaytirib, ish o'rnlari yaratish rejamizda bor. Maqsadimiz nafaqat viloyat, balki qo'shni davlatlarga ham sotish. Chunki hozir ulardan ham buyurtmalar tusha boshladi. Mahsulot arzon, shu sababli qo'ni-qo'shnilar ovqatga ham ishlatadi. Chunki iste'mol qilish jarayonida foydali xususiyatlarini sezar ekansiz. Ortiqcha yog' bo'lmaydi, go'shtning quvvatichalik kaloriyani berarkan. Ham salomatlikka, ham cho'ntakka foydasi bor.

Hayotdek tomorqasi bo'la turib, bir bog' piyoz yetishtirishga erinadigan, loqaql bir necha tut mevali daraxt ekib qo'yishni ham o'ziga ep ko'rmaydigan kishilar mana shunday serg'ayrat, tinib-tinchimas insonlardan o'mak olsa, foydadan xoli bo'lmadi.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Inson qadri uchun

IJTIMOIY ADOLAT MEZONI

Boborayshan G'OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Shu bois, 1-iyundan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini aniqlash tartibi va ular bilan ishlash tizimi o'zgaradi. Bunda ehtiyojmand toifani aniqlash bo'yicha mezonlar ishlab chiqiladi. Ularning aynan qanday yordamga muhtojligi aniqlab belgilab beriladi. Muhtojlarning har biri bo'yicha individual ijtimoiy xizmatlar dasturi bo'ladi. Bu ishlarni amalga oshirishda aynan “mahalla yetilligi” muhim rol o'ynaydi. Ular oilalarning muammo va imkoniyatlarini o'rganib, “ijtimoiy portreti”ni chizadi. Yordamdan so'ng xonadonda nima o'zgarганиni monitoring qilib boradi.

Ta'kidlash kerak, ijtimoiy himoya borasidagi ishlar, ayniqsa, inson qadri tom ma'noda ulug'lana boshlagan keyingi yillarda yangi rivojlanish bosqichiga chiqdi. Buni ko'pchilik yurtdoshlarimiz hayotidagi ijobiy o'zgarishlarda ko'rish mumkin. Ha, islohotlar samarasi oddiy odamlar hayoti misolida tezda ko'zga tashlana boshladi. Bu fikrimizni Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumani Bunyodkor mahallasida xotin-qizlar faoli bo'lib ishlayotgan Umida Baymanova hayotidagi tub o'zgarishlar ham isbotlaydi.

2017-yil, Piskent tumani. Umida opa turmush o'rtog'i bilan baxtiyor yashayotgan damlar. O'shanda asli bo'kalik Umida Baymanova Piskent tumaniga kelin bo'lib tushganiga endigina bir yil bo'lgandi. Yosh oila kutilmagan sinovga aylananday edi. Bir necha soat ichida besh xonali qo'rg'on kulxonaga aylandi. Uy bilan qo'shilib, bu oilaning orzulari, ishonchi ham kulga aylanganday edi. Ammo yurakning tub-tubida qandaydir ilinj bor. Shu ilinj sabab ular ijara uy topib, O'rta Chirchiq tumanidagi Sholikor mahallasiga ko'chib keldi.

Umida Baymanova 2010-yilda Toshkent arxitektura va qurilish universitetini tamomlagan. O'rta Chirchiqqa ko'chib kelishgach, farzand tarbiyasi, ro'zg'or yumushlari bilan andamon bo'ldi. Ammo halovati yo'q. Negaki, birgina turmush o'rtog'ining daromadi bilan ro'zg'or tebratish, yangi uy tiklash oson kechmasligini bilardi. Begona joyda, yolg'iz o'zi uyga qamali qolgan ayol shu haqda o'yilashi hamon ko'z oldi qorong'ilashib ketardi. Shunga qaramay, U.Baymanova biron joyga arz qilib bormadi. Hokimlik eshigini band qilib, menga uy beringlar, demadi. Aksincha, vaqtincha yashayotgan mahallasidagi faolning uning holdan xabar oldi. Oilaning holatini o'rganib, Umida Baymanovani “Ayollar dasturi”ga kiritdi.

— O'shanda 2022-yil edi, — deydi Umida opa. — Tumanimizga yangi tayinlangan hokimning aholi bilan uchrashuviga qatnashdim. Suhbat chog'ida hokimdan ish so'ragan edim, oliy ma'lumotli kadrlar ekanimni bilib, tuman arxitektura va qurilish bo'limiga taklif qildi. Ammo bola tarbiyasi sabab uydan olisga keta olmasdim. Shu bois, mahallamizga yaqin joyda ishlash niyatim borligini aytдим. Ko'p o'tmay, tumanda mehnat yarmarkasi o'tkazildi. Unda qo'shni Bunyodkor mahallasida xotin-qizlar faoli o'rni bo'shligini bilib, ariza topshirdim. Shu tariqa uyimga yaqin joyda, o'z'im sevgan ish bilan shug'ullana boshladim. Vazifam bir qarashda juda oddiy, ammo ulkan mas'uliyat va fidoyilik talab etadi. Ya'ni davlat siyosatini to'g'ri tushuntirish. Mamlakatimizda yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib, o'z'im kabi og'ir ijtimoiy vaziyatdagi opa-singillarga ko'mak berish.

Qahramonimiz salkam ikki yilda Bunyodkor mahallasi ahlining ishongan vakili, jonkuyar maslahatgo'yiga aylanib ulgirdi. Masalan, o'tgan 2023-yilda xatlov natijasiga ko'ra, mahalladagi 58 xotin-qiz ro'yxatga olinib, barchasiga ijtimoiy yordam ko'rsatilgan. Shuningdek, o'n bir nafar ishsiz xotin-qizdan besh nafariga subsidiya asosida tikuv mashinasi olishda, issiqxona qurib berishda ko'maklashilgan. Olti nafar opa-singillar esa doimiy ish joyiga ega bo'lgan. Shuningdek, u bir qator yutuqlarga erishdi. Masalan, Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmasi tashabbusi bilan o'tkazilgan “Eng namunalı huquq-targ'ibot

“Og'ir vaziyatdagi yurtdoshlarimiz muammosini hal etishda aynan tadbirkorlik subyektlarining o'rni beqiyos. Bu soha vakillari ish o'rni yaratib, aholi bandligini ta'minlaydi. Ayni paytda boshqalarga namuna, o'rnak bo'ladi. Davlat dasturida ko'rsatilganidek, ustoz-shogird an'analari davom ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

maskani” ko'rik-tanlovida “Eng namunalı xotin-qizlar faoli” yo'nalishi g'olibi bo'ldi.

Ayol o'z faoliyati haqida so'zlar ekan, beixtiyor qiyin ahvolda qolgan vaqtidagi holatini eslaydi. Shunga tayanib, boshqalarga maslahat beradi. Yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

— Og'ir vaziyatda qolgan oilalar bilan doim ochiq chehrada, ularning taqdiriga befarq emasligingizni bildirib suhbatlashish kerak, — deydi U.Baymanova. — Boshimdan o'tgani uchun yaxshi bilaman, bunday vaziyatda inson uchun uni tushunib, dardiga quloq tutishlari muhim hisoblanadi. Shu bois, ular bilan gaplashayotganda, avvalo, eshitaman. So'ng, birinchi navbatda, davlatimiz tomonidan qanday imkoniyatlar yaratib berilganini aytaman. Bu ularga umid, ishonch beradi. Joriy yildagi xatlov natijalariga ko'ra, mahallamizdagi 1100 nafar xotin-qizdan 45 nafari “Ayollar dasturi”ga kiritildi. Kelgusida ularga to'liq ijtimoiy yordam ko'rsatiladi, sog'lig'i, oilaviy ahvolidan kelib chiqib, ularni bu ro'yxatdan chiqarishni reja qilganmiz.

U.Baymanova mehnatsevarligi, samimiyliyi bois, yarim yilda mahalla ahlining mehrini qozondi. O'shanda u qo'shni mahallada yashab, ishga qatnardi. Mahalla oqsqoqlari hududdagi qarovsiz binoni ta'mirlab, ko'chib kelishni taklif qildi. So'ng oqsqoqlar shu tashabbus bilan tuman hokimiga murojaat qildi. Hokim binodan xizmat uyi sifatida foydalanishga ruxsat berdi. Mahalla ahli yosh oilaga qo'ldan kelgancha yordam qilib, qisqa vaqtda binoni ta'mirladi. Bugun qahramonimiz turmush o'rtog'i va ikki farzandi bilan shu binoda yashab kelmog'ida.

Oilaviy ahvolingiz bu bo'lsa, nega hokimlikdan uy so'ramaysiz desangiz, u siniq jilmayadi. So'ng “O'ziga shukur, to'rt muchamiz sog'”, ishlayapmiz. Uyni bizdan ham og'ir ahvoldagi oilalarga berish kerak. Biz esa mehnatimiz bilan hammasiga erishamiz”, deb javob beradi.

Darhaqiqat, boshqaruvning quyi tarmog'ida U.Baymanova kabi fidoyi, yurtsevar kadrlar bo'lishi davlat siyosatining har bir fuqaro qalbiga kirib borishiga xizmat qiladi. Bugun olib borilayotgan siyosat zamirida ham aynan shunga erishish maqsadi yotibdi. Mahalla yetilligi ham aynan shuning uchun tashkil etilgan.

Ijtimoiy adolat barqaror bo'lsa, mamlakat rivojiga barcha birdek hissa qo'sha oladi. Yuqorida ijtimoiy adolat haqida aytgan fikrimizning yana bir dalili xotin-qizlarga ko'rsatilayotgan e'tibordir. Endilikda ularga tadbirkorlik, marketing, grafik-dizayn kabi zamonaviy kasblar o'rgatiladi. Shu bois, ular uchun alohida — “Qizlar akademiyasi” platformasi ishga tushiriladi. Bu orqali yosh xotin-qizlar uchun turli tanlov, loyihalar, o'quv oromgohlari, stajirovkalar tashkil etiladi.

Shu o'rinda, kasb-hunar o'zlashtirar ekan, ularning bandligini ta'minlashga kafolat bormi, degan haqli savol tug'iladi. Bu jihat ham e'tiborga olingan. Masalan, “Biznesni qo'llab-quvvatlash dasturi” doirasida 2024-yil yakuniga qadar 2 million aholini biznesga jalb qilish hamda yangi ish o'rinlari yaratish orqali 5 million aholining bandligini ta'minlash uchun zarur sharoit yaratiladi. Bu ishlarni amalga oshirishda mahalla yetilligining o'mi beqiyos.



Aynan mahalla yetilligi misolida Prezident boshlab bergan islohotlar, inson qadriini ulug'lash eng quyi bo'g'ingacha yetib borayotganini ta'kidlash kerak. Bunday misollarni yurtimizda har qadamda uchratish mumkin. Shu kabi

Ijtimoiy himoya borasidagi ishlar, ayniqsa, inson qadri tom ma'noda ulug'lana boshlagan keyingi yillarda yangi rivojlanish bosqichiga chiqdi. Buni ko'pchilik yurtdoshlarimiz hayotidagi ijobiy o'zgarishlarda ko'rish mumkin.

qahramonlarimizdan yana biri buxorolik Dildora Atoyeva.

Bundan 2 yil oldin D.Atoyeva “Ayollar dasturi” orqali imtiyozli kredit asosida tadbirkorligini boshlagan edi. O'tgan qisqa vaqt ichida u tikuvchilik faoliyatini yo'lga qo'ydi. Ishning ko'zini bilgan ayol oilasiga daromad olib kela boshladi. Bundan yanada ruhlanib, izlanishdan, o'rganishdan to'xtamadi. Bu intilishlar zoye ketmadi. Shu kunlarda Buxoro shahridagi Yangiobod mahallasida tikuv sexi ochdi. Bu yerda u o'zi kabi yana to'rt nafar xotin-qizni doimiy ish bilan ta'minlagan. Qolaversa, besh nafar xotin-qizga ustoz-shogird an'anasi asosida hunar o'rgatmoqda.

Xabaringiz bor, davlat dasturida joriy yil yoshlarni zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha “Ustoz” maxsus platformasini ishga tushirish vazifasi belgilangan. Unga ko'ra, dastlabki bosqichda 250 ming nafar yigit-qiz qamrab olinib, kasb-hunarga o'rgatiladi. Dildora Atoyevaning faoliyati bu boradagi ishlar samarasi qanday bo'lishiga yaqqol dalil. Quvonarlisi, tadbirkor kelgusida ishchilarni ko'paytirib, 20 nafarga yetkazmoqchi. Qolaversa, tikuvchilikka qiziqadigan xotin-qizlarga o'z hunari sirlarini o'rgatishga tayyor.

Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yilida yosh ishbilanmonlar bilan bir vaqtda ijtimoiy sohada ham keng ko'lamli imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Yangicha tizim xalqimizning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini aniqlab, ko'rsatiladigan yordamning o'z egalariiga aniq yetib borishini ta'minlashga qaratilgan. Shu orqali natijadorlikka erishish ko'zlangan. Hozirgacha ham ijtimoiy himoya borasida ko'plab amaliy ishlar bajarildi. Buning natijasida olis qishloq va ovullarda yashaydigan, jismoniy imkoniyati cheklangan yurtdoshlarimiz hayoti



tubdan o'zgarimoqda. Buni olis Surxon vohasida tug'ilib o'sgan Hasan Qodirov hayoti misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Angor tumanidagi Qorabog' mahallasida yashovchi qahramonimiz mustaqil harakatlana olmaydi. Shu bois, o'qituvchilar Hasananing uyiga kelib, dars beradi. Uning jismoniy harakatlari cheklangani bois, tengdoshlaridan ajralib qolgandi. O'z-o'zidan uning orzulari ham



cheklangan, birdan-bir istagi xohlagan vaqtda tashqariga chiqish, odamlar orasida bo'lish edi. Jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, mazkur sohada aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini tubdan oshirish maqsadida



“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etilgani ayni muddao bo'ldi. Bu Hasan Qodirov kabi yurtdoshlarimiz orzusini amalga oshirishda qo'l kelyapti. Ushbu markazning Angor tumani bo'limi tomonidan H.Qodirovga elektron arava berildi. Bir qarashda bu juda jo'n hodisadek ko'rinadi. Bu istagan vaqtda xohlagan tomonga keta oladigan insonlardagina shunday tasavvur uyg'otadi. Aslida, bu kunni Hasan uzoq kutdi.

Jumladan, davlat dasturida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga alohida e'tibor qaratilgan. Unga ko'ra, mas'ullar har oyda kamida bir marta yoshlar bilan uchrashadi. Bu uchrashuvlarda yigit-qizlarning muammolarini tinglaydi. Ularni hal qilish va yoshlar salohiyatini yuzaga chiqarish uchun zarur choralar ko'radi. Albatta, yoshlar, avvalo, moddiy ta'minoti yaxshi bo'lishini istaydi. Buning uchun ular o'qib-o'rganishi, kasb-hunarli bo'lishi kerak. Mas'ullar shunday jihatlariga e'tibor qaratadi. Qolaversa, yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga ko'maklashadi. Endilikda Yoshlar ishlari agentligi tanlov asosida yoshlarning istiqbolli biznes loyiha va g'oyalarini saralab oladi. Bunda nogironligi bo'lgan yosh tadbirkorlarning loyiha va g'oyalariga alohida e'tibor qaratiladi. Bu bilan H.Qodirovday ijtimoiy himoya olib, endi yuksak marralarga intilayotgan yoshlar tadbirkorlik qilishiga imkoniyat eshiklari yanada keng ochiladi.

Yoshlarning iqtisodiy barqarorligi mustahkam bo'lsa, og'riqli masalalar kun tartibiga chiqmaydi. Chunki bunday jamiyatda hamma o'z ishi bilan band, hayoti to'kis bo'ladi. O'z-o'zidan huquqbuzarliklar, jinoyatlar kamayadi. Qadim kitoblarimiz, xususan, “Avesto”da xirmon donga to'lganida yovuz kuchlar chekinadi, deyilgan. Negaki, qorni to'q odamga nasihat kor qiladi. Meyin u yovuz kuchlar gapiga quloq tutmaydi. Koddin va ma'naviyat shu joyda birlashadi. Shu bois, mamlakatda aholining o'ziga to'q qatlami ko'p bo'lishi shart. Bu borada ham amaliy ishlar boshlangan va davom ettirilmoqda. Xususan, Prezidentimizning davlat dasturiga doir farmonida yoshlar o'rta-sida tadbirkorlikni keng ommalashtirish va biznes bilan shug'ullanishga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish maqsadida ustuvor vazifalar belgilangan. Unga ko'ra, oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizi endilikda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Bu borada ham kishini quvontiradigan holatlar bisyor. Masalan, Urganch tumanidagi Mevazor mahallasida birgina 2023-yilning o'zida tadbirkorligini boshlash va kengaytirish niyatida bo'lgan yoshlarga 2,5 milliard so'mlik imtiyozli kreditlar ajratilgan. Shuningdek, 117 yoshning bandligi ta'minlangan. Bitta mahalla uchun bir yilda shuncha mablag' ajratilishi bejiz emas. Ushbu mahallada 1123 ta xonadon bor, shulardan 173 tasi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadi.

Shu o'rinda, bir mulohaza. Xalqimizda “Qush uyasida ko'rganini qiladi” degan naql yuradi. Bu bejiz aytilmagan. Inson tabiatida taqld qilish, ko'rgan hodisasidan ta'sirlanish odati bor. Binobarin, bola uyida ko'rgan ishlarni, gaplarni ko'chada ham bajaradi, aytadi. Xuddi shuningdek, bu ko'lam kengayib, yosh avlod mahallada, mamlakatda bo'layotgan jarayonlarga o'zlari bilmagan holda taqld qiladi. Ya'ni jamiyatda qaysi amallar ustuvorlik qilsa, shuning ortidan ergashadi.

Mevazor mahallasidagi holat ham ana shu taqldning ijobiy natijasidir. Ular qo'ni-qo'shndan ko'rib, andaza olib, tadbirkor bo'lishga harakat qiladi. Masalan, shu

tumanda yashovchi yoshlardan biri Shuhrat Odilov tadbirkorlik qilish niyatida Mevazor mahallasidagi hokim yordamchisi Hasanboy Ibodullayevga murojaat qilgan edi. Uning holati o'rganilib, imkoniyat berildi. Unga bank tomonidan 33 million so'm imtiyozli kredit ajratildi. Qisqa vaqtda Shuhrat Odilov ishni to'g'ri yo'lga qo'ya oldi. U oila a'zolaridan tashqari yana to'rt kishini ish bilan ta'minladi. Shu tariqa bugun uning duradgorlik ustaxonasida sakkiz kishi daromad topyapti.

Qahramonimiz shu bilan to'xtab qolgani yo'q. Joriy yilda faoliyatini yanada kengaytirish niyatida. Buning uchun unga yangi, zamonaviy texnologiyalar, ish ko'larni oshiradigan dastgohlar kerak. Quvonarlisi shundaki, endilikda unga bu ishni amalga oshirishi uchun davlat dasturi doirasida 100 million so'mgacha imtiyozli kredit ajratilishi kutilmoqda. Mazkur mahallada esa davlat dasturi doirasida joriy yil yana 105 ta yangi ish o'rni yaratish maqsad qilingan.

Umuman olganda, Prezidentimizning “O'zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'kis bo'ladi. O'z-o'zidan huquqbuzarliklar, jinoyatlar kamayadi. Qadim kitoblarimiz, xususan, “Avesto”da xirmon donga to'lganida yovuz kuchlar chekinadi, deyilgan. Negaki, qorni to'q odamga nasihat kor qiladi. Meyin u yovuz kuchlar gapiga quloq tutmaydi. Koddin va ma'naviyat shu joyda birlashadi. Shu bois, mamlakatda aholining o'ziga to'q qatlami ko'p bo'lishi shart. Bu borada ham amaliy ishlar boshlangan va davom ettirilmoqda. Xususan, Prezidentimizning davlat dasturiga doir farmonida yoshlar o'rta-sida tadbirkorlikni keng ommalashtirish va biznes bilan shug'ullanishga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish maqsadida ustuvor vazifalar belgilangan. Unga ko'ra, oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizi endilikda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Bu borada ham kishini quvontiradigan holatlar bisyor. Masalan, Urganch tumanidagi Mevazor mahallasida birgina 2023-yilning o'zida tadbirkorligini boshlash va kengaytirish niyatida bo'lgan yoshlarga 2,5 milliard so'mlik imtiyozli kreditlar ajratilgan. Shuningdek, 117 yoshning bandligi ta'minlangan. Bitta mahalla uchun bir yilda shuncha mablag' ajratilishi bejiz emas. Ushbu mahallada 1123 ta xonadon bor, shulardan 173 tasi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadi.

Shu o'rinda, bir mulohaza. Xalqimizda “Qush uyasida ko'rganini qiladi” degan naql yuradi. Bu bejiz aytilmagan. Inson tabiatida taqld qilish, ko'rgan hodisasidan ta'sirlanish odati bor. Binobarin, bola uyida ko'rgan ishlarni, gaplarni ko'chada ham bajaradi, aytadi. Xuddi shuningdek, bu ko'lam kengayib, yosh avlod mahallada, mamlakatda bo'layotgan jarayonlarga o'zlari bilmagan holda taqld qiladi. Ya'ni jamiyatda qaysi amallar ustuvorlik qilsa, shuning ortidan ergashadi.

Mevazor mahallasidagi holat ham ana shu taqldning ijobiy natijasidir. Ular qo'ni-qo'shndan ko'rib, andaza olib, tadbirkor bo'lishga harakat qiladi. Masalan, shu



Transport infratuzilmasi

DUNYODA SANOQLI,
MARKAZIY OSIYODA YAGONA

Toshkent metropolitenining jami xizmat ko'rsatuvchi stansiyalari soni 50 taga yetdi, uzunligi esa 70 kilometrdan oshdi

Boshlanishi 1-betda

Eng muhimi, perron sahni keng, yorug' va ko'rkam. Zamonaviy lift, eskalatorlar, elektron monitor va xaritalar yo'lovchilar xizmatida. Bunda qulaylik yaratuvchi texnologiyalar, yo'l haqini elektron to'lash imkonini beruvchi turniketlar ham

“Do'stlik-2” va “Qo'yliq” yer usti bekatlarini bog'lovchi uzunligi

11,5 kilometrlik 7 ta stansiyadan iborat yo'nalishning birinchi qismi 2020-yil avgust oyida ishga tushirilgan edi.

Ayni paytda birinchi bekatdan oxirigisigacha o'rta hisobda 19 daqiqada yetib olish mumkin.

— Yer usti metro yo'nalishining ikkinchi bosqichi to'la ishlay boshladi, ular orasidagi qatnov vaqti o'rta 15 daqiqa bo'lyapti, — deydi “Toshkent metropoliteni” DUK boshlig'i o'rinbosari Soyibjon Jo'rayev. — Shu

Buning hisobiga shaxsiy transportlarga ehtiyoj kamayib, tirbandlikning oldi olinadi. Xususan, Qo'yliq — Sergeli yo'nalishida harakatlanadigan kunlik avtomobillar soni 32 mingtagacha qisqarib, transport oqimi 12 foiz kamayadi.

kundalik qatnoviga qulaylik yaratdi.

Endi e'tiboringizni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Bekmirza Eshmurzayev qayd etgan raqamlarga qaratmoqchimiz. Uning yozishicha, 1972-yilda Toshkent metropoliteni qurilishi boshlanib, mustaqillik davrigacha

qo'shimcha yer osti va yer usti metro yo'nalishlari hamda metropoliten bekatlari barpo etib kelinmoqda. Ushbu davrda jami 32 kilometr metro yo'nalishlari qurilib, 21 ta zamonaviy metro bekatlari foydalanishga topshirildi. Yillar davomida cho'zilib kelgan



Hakim Yo'ldoshev olgan suratlardir.

qo'l kelyapti. “Turon” stansiyasi ham shunday shart-sharoitlarga ega.

Bundan besh-olti yil oldin yer usti metrosi haqida gap borganda ko'pchilik uning qanday ishlashini yaxshi tushunmas, bilganlar esa xorijda ko'rganlarini ko'z oldiga keltirardi. Prezidentimizning 2017-yil 19-maydagi “Toshkent shahrida yer usti metro liniyalarining qurilishi” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bilan yurtimiz transport tizimida kuzatilgan ulkan va tarixiy loyihani amalga oshirishga kirishildi.

Dunyoy tajribasidan ma'lumki, eng qulay, xavfsiz va tezkor transport turi bo'lgan metro qurish, undan muntazam foydalanish uchun har doim katta mablag', tajribali mutaxassislar va albatta, zamonaviy texnikalar zarur bo'lgan. Shu bois, bu kabi yirik loyihalarni amalga oshirishda davlatning iqtisodiy imkoniyati ham shunga yarasha bo'lishi kerak. Estakada shaklidagi yer usti metrosini qurish yo'nalishida amalga oshirilayotgan loyihalar mamlakatimizning ana shunday imkoniyatga egaligini yaqqol namoyon etib turibdi.

Ayni paytda jahondagi 62 davlatning 195 shahrida metro mavjud. Ular orasida stansiyalari ko'pligi bo'yicha Nyu-York (424 ta), Shanxay (403 ta), Pekin (370 ta), Parij (308 ta), Seul (279 ta), London (273 ta), Moskva (263 ta) kabi shaharlar metropoliteni yetakchilik qiladi. Kaminaga xizmat safarlari davomida ularning aksariyatidan foydalanishga, bekatlarining o'ziga xos yechimini qiyoslash va vagonlaridagi qulayliklardan bahramand bo'lishga to'g'ri kelgan. Lekin keyingi yillarda bu sohada amalga oshirilgan loyihalar ko'lami, ayniqsa, yer usti shaklida barpo etilgan stansiyalar soni va me'moriy mahobati bilan taqqoslaganda, Toshkent shahri metrosi dunyoda sanoqli desak, hech bir mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

“Do'stlik-2” va “Qo'yliq” yer usti bekatlarini bog'lovchi uzunligi 11,5 kilometrlik 7 ta stansiyadan iborat yo'nalishning birinchi qismi 2020-yil avgust oyida ishga tushirilgan edi. Ayni paytda birinchi bekatdan oxirigisigacha o'rta hisobda 19 daqiqada yetib olish mumkin.

O'sha yili dekabr oyida uzunligi 6,3 kilometr bo'lgan Chilonzor yo'lining Sergeli tarmog'i ochildi. Shu tariqa poytaxtimizda qurilib, foydalanishga topshirilgan yer usti metro yo'nalishlari yo'lovchilar uzog'ini yaqin, mushkulini oson qilyotgan, ular uchun qulay va asosiy transport turiga aylanib qoldi. Bugun yo'lovchilar oqimining ko'pligi esa bu ishlar o'zini to'la oqilyotganidan dalolat beradi.

Loyihaga ko'ra, yer usti halqa metrosi qurilishining ikkinchi bosqichida Qo'yliqdan Sergeliga qadar bo'lgan yo'nalishni uzaytirish ko'zda tutilgan edi. Dastlab Qo'yliqdan Sergelining “Quruvchilar” massivigacha 5 yangi stansiyadan iborat, uzunligi 8,5 kilometr bo'lgan yo'nalish barpo etildi. Ushbu yo'nalishdagi yana 2 ta stansiya qurilishi nihoyasiga yetgach, ikkinchi bosqichning umumiy uzunligi qariyb 12 kilometrni tashkil etdi.

Mutaxassislarining qayd etishicha, qurilishining mustahkamligiga, bekatlarda odamlar uchun zamonaviy, elektron

xizmatlarni yo'lga qo'yishga alohida ahamiyat qaratildi. Temiryo'lichilar tomonidan ushbu yirik loyiha har tomonlama puxta o'yilgan reja asosida, eng muhimi, xalqaro talablarga tayangan holda amalga oshirildi. Tun-u kun qilingan mehnat, zarur mablag' va poytaxt hayotiga daxldorlik hissi o'z samarasini berdi. Yunusobod va Qo'yliqni ulagan yo'nalishdagi metro poyezdlari bugun yo'lovchilarning uzog'ini yaqin qilyapti.

paytga qadar metroning ushbu yo'nalishida kuniga o'rta hisobda 45 ming yo'lovchi tashilib, Yashnobod, Mirobod, Sergeli va Yangiayot tumanlaridagi 55 ta mahallada yashovchi 220 ming aholi qamrab olingan edi. Yangi ikkita metro bekatining ish boshlashi natijasida Sergeli va Yangiayot tumanlaridagi yana 7 ta mahallada yashovchi 31 ming aholiga metropolitenidan foydalanish imkoniyati yaratildi.

Keyingi yillarda metropoliten qamrovini kengaytirish maqsadida qo'shimcha 32 kilometr yo'l qurildi, 21 ta yangi stansiya ishga tushirildi. 15 ta zamonaviy metro poyezdi, 36 ta yangi vagon olib kelindi, kunning tig'iz vaqtida poyezdlar kelish vaqti avvalgi 5-7 daqiqadan 2 daqiqagacha qisqardi. Yangi yo'nalishlar poytaxtimizning Yashnobod, Mirobod, Sergeli, Yangiayot va Yunusobod tumanlaridan o'tib, aholining

umumiy uzunligi 30 kilometrlik “Chilonzor” va “O'zbekiston” yo'nalishlarida 23 stansiya mavjud bo'lgan. Undan keyingi 27 yilda (1991-2017-yillarda) faqatgina Yunusobod yo'nalishining bir qismi qurilib, 6 ta bekat ishga tushirilgan. O'sha davrlarda jami 49 ta metro poyezdi harakatlanib, 2001-yildan buyon yangi vagonlar olib kelinmagan edi.

Oxirgi 7 yilda esa poytaxt metropoliteni infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida

Yunusobod yo'nalishining oxirgi 2 ta stansiyasi qisqa muddatlarda qurib bitkazildi hamda 19 ta stansiyaning o'z ichiga oluvchi “Sergeli” va halqa yer usti yo'nalishlari foydalanishga topshirildi.

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda Toshkent metropolitenida bir kunda o'rta 445,9 ming yo'lovchi tashilgan va bu 2022-yilga taqqoslaganda 19 foizga oshgan.

Shu yil boshiga qadar Toshkent shahrida 5 million aholi bo'lib (doimiy istiqomat qiluvchilar — 3,02 million, kunlik shaharga kelib-ketuvchilar — 1,5 million, vaqtinchalik yashovchilar — 0,48 million), shundan mobil (harakatdagi) aholi soni o'rta 3,5 million kishini (1,8 million ish bilan band aholi, 0,4 million talaba, 0,5 million o'quvchi va 0,8 million boshqalar) tashkil etgan.

O'tkazilgan tahlillarga (transport makromodeli) ko'ra, poytaxtdagi mobil aholining kunlik harakatlanish (qatnov) soni o'rta 9 millionitani tashkil etib, shundan 6 million qatnov transportda amalga oshiriladi. Ular 1,7 millioni (28 foiz) jamoat (avtobus, metro) transportiga (2022-yilda 0,8 millionit), 4,3 millioni yengil avtotransportga to'g'ri kelmoqda.

Toshkent metrosining yo'lovchi tashish soni tobora ortib boryapti. So'nggi yillarda uning miqdori besh karra oshib, o'tgan yil oxiriga kelib, kuniga 750 mingga yaqinlashgan edi. Shu yilning 5-mart kuni esa bu raqam 900 mingdan oshdi. Tabiiyki, yangi bekatlar ishga tushirilishi va yer usti metro halqa yo'lining to'la bir butun zanjirga aylanishi tez orada bu ko'rsatkich bir millionlik marraga yetishiga ham imkoniyat yaratadi.

Metroning istiqboli haqida gap borganda o'tgan yil sentyabr oyida bo'lib o'tgan taqdimotda Prezidentimiz Buyuk Britaniyaning “Cross Works” kompaniyasi tomonidan tayyorlangan Toshkent va “Yangi Toshkent” qo'shma loyihasini ma'qullagan yodga keladi.

“Ushbu ulkan loyiha uchun Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq va O'rta Chirchiq tumanlaridan 19 ming 720 gektar yer tanlab olingan. Birinchi bosqichda 2,5 ming gektarda 100 ming aholi uchun uy-joylar va infratuzilma obyektlari qurish rejalashtirilgan. Tuzilgan yangi direksiya tomonidan yetakchi xorijiy kompaniyalar jalb etilib, rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan amaliyotlar asosida Bosh reja, tarmoq rejalar va manzilli dasturlar ishlab chiqilmoqda”, deya xabar bergandi Prezident matbuot xizmati.

“Yangi Toshkent” shahrini barpo etish direksiyasi direktori Davronjon Odilov O'zbekiston hukumati Toshkent va Yangi Toshkentni ikkita metro liniyasi bilan bog'lashni rejalashtirayotganini aytar ekan, “Toshkentning transport modeli yaratildi, u makromodel, deyiladi. Yangi shaharga ikkita metro liniyasi — “Buyuk Ipak yo'li” va “Do'stlik” bekatlari orqali bog'laniladi, 30-35 daqiqada yetib kelish imkoniyati yaratiladi”, degan edi.

Bunyodkorlik

MANZILGA BITTA TRANSPORT ORQALI YETISH MUMKIN

Buni yo'lovchilar katta mamnuniyat bilan e'tirof etmoqda

Fasllar kelinchagi bilan birga kirib kelgan mohi Ramazon dillarni quvontirib turgan bir vaqtda xalqimizga yana bir tuhfa hozirlandi.



MAZKUR QR-KOD ORQALI VIDEOGA O'TING.



Yangi bekatlarni ko'rish, odamlarning taassurotlarini bilish maqsadida manzilga yetib bordik. Avval “Qipchoq” bekatiga kirdik. Boisi, u yer usti halqa yo'lining so'nggi bekat bo'lib, undan “Sergeli” yo'lining “Chinor” bekatiga o'tib ketish ham mumkin. Yangi bekatda odam kutganimizdan ko'ra gavjum.

Ikki oydan beri shu bekatlar ishga tushishini kutayotgandim, Allohga shukr, o'sha kun keldi, — deydi Abdusamad ota. — O'zim shu yerga yaqin joyda yashayman. Avval “Quruvchilar” bekatida tushib qolib, uyimga kelish uchun yana avtobusga chiqishimga to'g'ri kelardi. Endi faqat metroning o'zida kelaman. Shu jihatdan menga juda oson bo'ldi.

Ko'chalarda transport tirbandligi oshib borayotgan sharoitda metro juda qulay. U orqali manzilga uzoq kutishlarsiz, bir zumda yetib olish mumkin. Aksariyat rivojlangan va katta shaharlarda metrogga ustunlik berilishi boisi shunda.

— Yangilari ochilishi hisobiga Toshkent metropolitenidagi bekatlar soni 50 taga

yetdi. Shundan 19 tasi yer usti, 31 tasi yer osti bekat, — deydi “Toshkent metropoliteni” DUK matbuot xizmati rahbari To'ychi Mirzayev. — Ularning umumiy uzunligi qariyb 72 kilometrni tashkil etyapti. Bu jihatdan Toshkent metropoliteni MDHda 3-o'rinda turibdi. Ochig'i, bu katta ko'rsatkich. Asosiysi, yurtimizda jamoat transportiga ustunlik berish, odamlarning qulay, xavfsiz transport vositalaridan foydalanishga bo'lgan talabini qondirishda bu yo'nalish katta o'rinni egallayapti. Tahlillarimizga ko'ra, bir kunda o'rta 800-900 ming yo'lovchi metrodan foydalanyapti. Shu yilning 5-mart kuni Toshkent metropoliteni ilk bor 900 mingdan ziyod yo'lovchiga xizmat ko'rsatib, tarixiy natijani qayd etdi. Yangi bekatlar ishga tushishi hisobiga ko'rsatkich yana ortadi. Metroda poyezdlarning harakatlanish oralik intervali ham ancha qisqargan.

Zamonaviy, ko'rkam bekatlar bo'ylab yurarkanmiz, qo'limizda mikrofonni ko'rgan kishi borki, yonimizga kelib, quvonchini so'zlay ketdi. “Yangi metro bekatlarining

ishga tushgani juda yaxshi bo'ldi. Ko'pincha nabiralarimni maktabdan o'zim olaman. Oldin metrodan avtobusga o'tirishga to'g'ri kelardi. Avtobus esa ko'pincha tiqilinch, yo'llar ham nisbatan tirband bo'ldi. Endi metroda to'g'ri manzilgacha yetib kelyapmiz. Bundan juda xursandman. Chunki ko'pchilikka, ayniqsa, biz kabi nafaqadagi odamlar uchun metro ancha qulay”, deydi Saodat Ochilova.

Ibodilla Xolmatov ham nafaqada. O'zi Angren shahrida yashaydi. Shaxsiy yumushlari bilan ko'pincha Sergeli tumaniga qatnar ekan. Unda ham metrodan avtobusga o'tirish kabi qiyinchiliklar bo'lgan. Bu gal esa u manzilgacha to'g'ri metroda keldi va bundan nihoyatda quvonayotganini yashirdi: “Ikkita yangi metro bekatini ochilganini ko'rib, xursand bo'lib ketdim. Shunday ulug' kunlarda ochilgani yanada quvontirdi. Salqingina vagonda, ortiqcha

ovoragarchiliksiz manzilga bir zumda yetib keldim. Qaytishda ham shunday qulay bo'lishini o'ylasam, quvonmayman”.

Yer usti halqa yo'lining yangi bekatlari boshqa shu turdagilari kabi estakada usulida qurilgan. Bekatni bezatish ishlarida ham xavfsizlik nuqtayi nazaridan yer osti metro bekatlaridagi kabi og'ir materiallar, marmar toshlardan foydalanilmagan. Estakada usuli aynan yengil konstruksiyalarni nazarda tutib, metro bekatlarining zilzilabardoshligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Umuman, metro bekatlarida xavfsizlik talablari doim zarur. Odamlar chekka tomondagi sariq chiziqlarni bosmaslik talabiga rioya etishi shart. Nogironligi bo'lgan kishilar uchun esa sariq chiziq yoniga maxsus bo'rtmali yo'lak qilingan. Uni bosganda, bo'rtmalarni darhol payqash mumkin.

— Yangi bekatlar ochilishini bir necha oydan beri kutaman, — deydi kollej o'quvchisi Shirin Baxtiyoro'va. — Chunki ancha oldin ochilishi aytilgandi, ammo avval sinov tariqasida harakatlanayotgan ekan. Kecha qaraganimda ham yo'lovchilarsiz yurayotgan edi. Bugun esa nihoyat ishga tushdi va ochilishi shu kunga nasib qilgan ekan. Juda xursand bo'ldim. Chunki o'zim “Qipchoq” bekatini yonginasida yashayman va endi bitta metro transportida o'qishga qatnayman. Bu ham vaqtim, ham naqdimni tejaydi.

Toshkent shahrida aholi soni mehmonlar, sayyohlar hisobiga ham kun sayin ko'payib boryapti. Demak, metrodan foydalanishga ham talab ortib boraveradi. Toshkent metropoliteni esa yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini doimiy oshirish harakatida. Shu maqsadda may oyi oxiriga qadar yana 20 ta zamonaviy metro vagoni olib kelinishi rejalashtirilgan.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Abdurauf QORJOVOV,
sharhlovchi



Munira QAHHOROVA,
O‘zbekiston xalqaro islom
akademiyasi bo‘lim boshlig‘i, falsafa
fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Bugungi bolalarning kun
tartibini internetsiz tasavvur
qilib bo‘lmaydi. Internet
bolalar hayotiga ilk yoshidanoq
kirib kelmog‘da. Bunga ota-
onalarning o‘zi yo‘l qo‘yib
berayotir. Oilalarda onlayn muhit
shakllanib, bolalar bilan ota-ona
o‘rtasidagi munosabat hamda
muloqotlar virtuallashmoqda.

Xo‘sh, bolamizning qo‘liga telefonni berdik,
lekin undan qay maqsadda foydalanishni vaqtida
o‘rgata oldikmi? O‘rgatish texnologiyalari
ishlab chiqildi? Javoblar mavhum. Ular
internet tarmoqlari orqali o‘zicha o‘rganib,
o‘zlashtirmoqda. Demak, bugungi kunda
internet “muallim”lari faollashgan. Bizning
tarbiyachi muallimlarimiz internet muallimi
bo‘la olmayapti. Bolalar uchun internet
platformalari yaratilmagan.

Prezidentimiz raisligida joriy yil
5-fevral kuni ijtimoiy sohalardagi ustuvor
vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan
videoselektor yig‘ilishida ham maktabda
davomatga, tarbiyasi og‘ir o‘quvchilarga
alohida e‘tibor qaratilishi zarurligi, bunda
ota-onalar va mahalla raislarining mas‘uliyati
oshirilishi ta’kidlandi. “Maktab — ota-ona
— mahalla” zanjiri asosida elektron muloqot
platformasi ishga tushirilib, bolalarning
doimiy onlayn nazoratini o‘rnatish vazifa
qilib belgilandi. Shu bilan birga, yoshlar
o‘rtasida omallashgan ijtimoiy tarmoqlar
har tomonlama g‘oyaviy-mafkuraviy tahlil
qilinib, ularning zararli ta’siridan himoyalash
va ijobiy tomonidan foydalanish choralari
ko‘rilishi zarurligi topshiriq sifatida berildi.
Shuningdek, ota-onalar uchun farzand ta’lim-
tarbiyasi bo‘yicha xalqchil tilda qo‘llanmalar
tayyorlanishi maqsadga muvofiqligi ta’kidlandi.

“Bu tashabbuslar yo‘lga qo‘yilsa, maktab
ta’limi bo‘yicha ota-onada mas‘uliyat,
o‘qituvchida majburiyat, o‘quvchida ishonch,
ta’lim va tarbiyada sifat, mahallada esa nazorat
bo‘ladi”, dedi davlatimiz rahbari.

VIRTUAL O‘YINLAR ORTIDAGI FOJIA

Tahlillarga ko‘ra, bizga beozor ko‘rinayotgan
“Kontr”, “Dota”, “Jeta”, “Kontr strayk”,

“Varkraft”, “Boy bez pravil” (“Qoidasiz
janglar”), “BloodRayne2” (“Qonli yomg‘ir”),
“Left4Dead” (“O‘limga mahkum etilgan”),
“Farcry” (“Uzoqdan taralgan chinqiriq”) virtual
o‘yinlari nafaqat yurtimiz farzandlarini, balki
butun dunyo bolalarini o‘ziga ram etmoqda.
Natijada “Bola — bola”, “Ota — o‘g‘il”,
“Ona — qiz”, “Jamoa — jamoa” emas, “Bola
— kompyuter” muloqot shakli yetakchiga
aylanmoqda. Bola, deylik, kuniga 3-4 soat
“shuter” o‘ynasa, shuncha vaqt tana a‘zolari
harakatsiz o‘tiradi. Asablari taranglashib,
ko‘zlari qizarib, ham jismonan, ham ruhan
zo‘riqadi. Bir soat o‘zini eng zo‘r kallakesar

killerdek tutadi. O‘yin ichida ochiqchasiga
odam o‘ldirmoqda. O‘yin yakunida u g‘olib
yo mag‘lub bo‘ladi. Ko‘zlari, qulog‘i va
ongi shu bilan qotib bormoqda. Agar u odam
o‘ldirolmasa, diqqinifas bo‘ladi. Natijada
bolalar kompyuter o‘yinlaridagi kabi odamlar
hayotini tuganmasdek his qila boshlaydi. Har
qanday ziddiyatli holatlarni faqat kuch bilan
hal etish mumkin deb qaraydi. Shuningdek,
o‘yin qahramonlari kabi hech qanday xavfdan
qo‘rqmaslikni, hayotda hamma narsaga osonlik
va kuch bilan erishish mumkinligi, odamlarga
beshfaqat munosabatda bo‘lish kerakligini
o‘rganadi.

MAZKUR HOLATLARDA NIMA QILISH KERAK?

Har qanday muammoning oldini olgan,
paydo bo‘ldimi, gazak olmay, yechim izlagan
yaxshi.

Farzandingiz bilan, avvalo, internetda
nimalar qilayotgani to‘g‘risida gaplashing.
U biror foydali ish yoki yangiliklar, chat
va yozishma, jarayon bilan mashg‘ulmi? U
siz va o‘rtoqlaridan ko‘ra internetni afzal
ko‘rmayaptimi? Bir kunda necha soatini
internetga bag‘ishlayapti? Boshqa yumush,
vazifalarini tashlab qo‘ymadimi? Bularni
yaxshiroq o‘rganishingiz zarur.

Ikkinchidan, internet orqali bolangizni
kuzating. Horiganmi, zardallilik, bezovtalik,
gaplashgisi kelmaydigan kayfiyatdami?
Boshi, yelkasi og‘rimayaptimi? Uyqusi
buzilmayaptimi, jismoniy harakatsizlik,
ishtahasizlik ko‘rinmaydimi? Maktab
psixologi, murabbiyi bilan bolangizning
o‘qishlari, o‘rtoqlari bilan munosabati haqida
surishtiring. “Ichimdagini top”, odamovi
bo‘layotganini sezsangiz, mobil telefonidan
internetga kirayotgan bo‘lsa, bu masalaga
yanada jiddiy qarashingiz kerak.

Uchinchidan, farzand bilan tergovchidek
emas, samimiy do‘stdek gaplashishga erishing.
Bolangiz bilan u yecha oladigan biror muammo
haqida suhbatlashing. Mana shu muammo
sizni bezovta qilayotganini tushuntiring.
Bolangiz sizga ishonsin. U sizni “meni jazolash
uchun tergovchi” degan fikrga bormasin.
Masalan, kimdir uning profilini buzib kirib,
muammo chiqarayotgan bo‘lsa, unga buning
sababini ko‘rsating. Internetda o‘zini qanday
himoyalashini o‘rgating. Bilmasangiz,
mutaxassisga murojaat qiling.

Internet — ta’lim-tarbiya uchun ulkan imkoniyatlar maydoni. Faqat undan to‘g‘ri
foydalanish kerak. Har bir ota-ona farzandi mustaqil fikrllovchi, dadil, uddaburon,
chuqur bilimli, qat’iyatli, mehribon bo‘lishini istaydi. Bu esa o‘z-o‘zidan bo‘lavermaydi. Tarbiyani bir zum
ham unutmashlik bilan erishiladi.

MULOHAZA



Bolalar ta’lim-tarbiyasida biz ma’naviy va ma’rifiy uyg‘onmas ekanmiz,
farzandlarimizni o‘zgalar “uyg‘otadi”. Natijada ma’naviyat va ma’rifatdan
yiroqlashgan jamiyatning shakllanishiga sababchi bo‘lib qolishimiz
mumkinligini anglashimiz kerak. Ma’naviyatdan yiroqlashgan qalblarni
yovuzlik egallaydi, shuni unutmaylik!



UYG‘ONMAS EKANMIZ, FARZANDLARIMIZNI O‘ZGALAR “UYG‘OTADI”

yoxud ma’naviyatdan yiroqlashgan
qalblarni yovuzlik egallaydi

To‘rtinchidan, bolangizga ijtimoiy
tarmoqdan hujum bo‘lganmi yoki uni real
hayotda biror joyga uchrashuvga taklif
qilishganmi? O‘sha begona shaxs haqida
u qanday ma’lumotlarga ega? Xavf-
xatarlardan ogohlantiring. Nimalar qilishni va
qilmaslikni uqtiring. Bu haqda farzandingizni
ham tinglang, qo‘shimcha ma’lumotlarni
saytdan olib o‘rganing. Uning tarmoqdagi
o‘rtoqlari, tanishlari ro‘yxatini, qanday
xabarlar aylanayotganini tekshiring. Zarur
bo‘lsa, ma’lumotlardan nusxa oling. Ertaga
bu ma’lumotlar huquq-tartibot organlariga
murojaat qilganingizda kerak bo‘lib qolishi
mumkin. Agar bolangiz sizdan nimalamidir
yashirayotganini sezsangiz, mutaxassislar bilan
bog‘laning. Ular sizga qayerga, qanday shaklda
murojaat qilish mumkinligini aytadi.

Beshinchidan, yudagi kompyuteringizga
antivirus dasturini va maxsus pochta
filtrlarini o‘rnatiring. Faqat litsenziyalangan
dasturlardan, ishonchli manbalardan
foydalaning. Hech qachon shubhali va notanish
manzillardan yuborilgan jo‘natmalarni
ochmang. Farzandingizga internetga kirishga
ruxsat berishdan oldin uni viruslar, zararli
dasturlar, xavfli saytlar, internet firibgarlari,
xavflar to‘g‘risida ogohlantiring. Internetga
kirish va foydalanish vaqti, u kiradigan
saytlarni aniq belgilab bering. Shuningdek,
kuniga 30 daqiqadan ortiq kompyuter o‘ynash
sog‘lig‘iga jiddiy zarar yetkazishi haqida har
kuni tushuntirib boring. Masalan, ko‘rish
qobiliyati pasayib ketishini anglatir.

Oltinchidan, begona ma’lumot paydo
bo‘lsa, tezda sizga murojaat qilishi shartligini
ayting. Onlayn tanishlari bilan sizsiz
yoki biror katta kishi yonida bo‘lmasa,
uchrashmaslikni tushuntiring. Uning kimlar
bilan muloqot qilayotganini bilib yuring.
Bolangizga internetda qo‘pol, haqoratli
so‘zlarni yozmaslikni, o‘qimaslikni o‘rgating.
Siz o‘matgan qoidalarga farzandingiz amal
qilayotganini nazoratga oling. Talablarni uning
yoshidan kelib chiqib qo‘ying.

Yettinchidan, tobe bo‘lgan bolalarga
birdaniga kompyuter o‘yinlarini o‘ynashni
cheklash mumkin emas. Aksincha, kompyuter

o‘yinlari o‘ynash vaqtini har kuni kamaytirib
borish bilan tobeklikdan xalos qilinadi. Raqamli
dunyoda farzandingiz xavfsizligini ta’minlang.
Har bir bola tarbiyasida mas’ul ekaningizni
unutmang! Internetdan bolalar uchun
mo‘ljallangan mantiqiy fikrlashga undaydigan
o‘yinlarni topib, ularni birga o‘ynang. Oilaviy
qadriyatlar aks etgan filmlar qidirib, ularni
farzandlaringiz bilan birga ko‘ring. Bolalar va
yoshlar bilan ularning yoshiga mos keladigan
va vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi kerak bo‘lgan
mazvalarda muntazam, samimiy, ochiq
muloqotni tashkil eting.

Moskva davlat universiteti Internetni
rivojlantirish jamg‘armasi xodimlari
tomonidan o‘tkazilgan “Rossiya bolalari
onlaynda” tadqiqotiga ko‘ra, har beshinchi
o‘quvchi kuniga 5 soatdan ko‘proq vaqtini
internetda o‘tkazadi va so‘rovda qatnashgan
har o‘ninchisi o‘smir internetda yashashini
ta’kidlaydi. Maktab o‘quvchilarining 90
foizdan ortig‘i ota-onalari, o‘qituvchilari yoki
yaqin atrofdagi boshqa oqsoqollar nazoratsiz
internetga kiradi. Kasperskiy laboratoriyasi
tadqiqotchilari esa boshlang‘ich ta’limdagi
bolalarning 93 foizi o‘z smartfoniga egaligini
aniqladi. O‘smirlar esa buzib bir qadam ham
bosa olmaydi. So‘rovda qatnashgan bolalarning
deyarli 80 foizi kundalik tartibini ushbu
gadjetlarisiz uddalay olmasligini bildirgan.
Shuningdek, ushbu laboratoriyaning bolalar
internet xavfsizligi bo‘limi rahbari Andrey
Sidenko: “Internet bolalar kundalik hayotining
bir qismiga aylangani uchun ota-onalari bilan
janjalli kamaygan. Avvallari bunday nizolar har
uchinchi oilada bo‘lar edi”, deydi. Shuningdek,
internetda zo‘ravonlik videolariga duch
kelayotgan bolalar, asosan, 7-10 yoshlilardir.
Bu yoshdagi bolalar internetni faol o‘rganishni
boshlaganida ana shunday videolarga aksariyat
hollarda tasodifan duch keladi. Ammo ba’zi
bolalar ota-onalariga yoqmaydigan videolarni
ataylab tomosha qilishini tan oldi.

Indoneziyadagi statistik ma’lumotlarga
ko‘ra, bolalarning 20 foizi, ya’ni har beshinchi
internet orqali begonalaridan bezovta qiluvchi
xabarlar olmoqda, hatto to‘g‘ridan-to‘g‘ri
tahdidlarga uchrarmoqda. Shu sababli tahlilchilar

internetda sarflangan vaqtini ota-ona belgilab
berishi shartligini ta’kidlamog‘da. Ya’ni kichik
maktab yoshida kuniga 1 soatdan, katta maktab
yoshida 3 soatdan oshmasligi kerak.

Amerikaning Common Sense Media
mustaqil tashkiloti tadqiqotlari ko‘rsatadiki,
koronavirus pandemiyasidan keyingi ikki yil
ichida bolalar (8-12 yosh) va o‘smirlar (13-
18 yosh)ning ommaviy axborot vositalaridan
foydalanishi avvalgi to‘rt yildagiga qaraganda
tez o‘sgan. 8 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan
bolalar kuniga o‘rtacha besh yarim soat vaqtini
ekran va internetda o‘tkazadi. O‘smirlarda bu
ko‘rsatkich kuniga sakkiz yarim soatdan oshadi.

O‘smirlarning 79 foizi ijtimoiy tarmoqlar
va onlayn videolardan haftasiga kamida bir
marta foydalanishini aytib, ularning 32 foizi
“YouTube”siz yashashni istamasligini bildirgan.
Boshqa bir so‘rovda esa 12 yoshgacha bolalari
bo‘lgan ota-onalarning 71 foizi farzandlarining
ekran oldida juda ko‘p vaqt o‘tkazishidan
xavotirda ekanini bayon etgan.

Farzandingizni internetdan ortiqcha
foydalanishi quyidagi xavflarni keltirib
chiqaradi.
Uyqusi yetarli bo‘lmaydi. Mediadan
foydalanish uyquga xalaqit beradi. Yotoqxonasida
televizor, kompyuter yoki mobil
qurilma bo‘lgan bolalar va o‘smirlar kech
uxlaydi. Ekranlardan ogohlantiruvchi kontent
uyquni kechiktirishi yoki buzishi va ta’lim-
tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Semirib ketadi. Internetdan haddan tashqari
ko‘p foydalanish semizlik xavfini oshiradi.
Kuniga 1,5 soatdan ortiq vaqt internetda o‘tirish
4 yoshdan 9 yoshgacha bolalarda semirib ketish
uchun xavf omilidir.

O‘rganish va ijtimoiy ko‘nikmalardagi
kechikishlar. Ota-onalari va oila a‘zolari bilan
kam muloqot qilish oqibatida bolalar internetga
berilib ketib, ular diqqat, fikrlash, til va ijtimoiy
ko‘nikmalarda kechikadi.

Maktab faoliyatiga salbiy ta’sir. Bolalar
ko‘pincha uy vazifasini bajarish o‘rniga
internetda ko‘ngilochar videolar ko‘radi,
o‘yinlar o‘ynaydi. Bunday ko‘p vazifalilik
ularning maktabda o‘qishiga va bilim olishiga
salbiy ta’sir qiladi. Bilim darajasi pastlab
ketadi.

Xulq-atvor muammolari. Internetdagi
zo‘ravonlik kontenti bolalarning xulq-atvori
bilan bog‘liq muammolarga sabab bo‘lishi
mumkin, chunki ular ko‘rgan narsalaridan
qo‘rqib, sarosimaga tushadi yoki o‘yin
qahramonlariga taqlid qilishga intiladi. Ularda
odob-axloq qoidalarga rioya qilish holati
buziladi.

Xavfli xatti-harakatlar. Ijtimoiy tarmo-
qlardagi o‘smirlar ko‘pincha xavfli xatti-ha-
rakatlarni ko‘rsatadi, masalan, giyohvandlik
moddalari iste’mol qilish, o‘z-o‘ziga shikast
yetkazish yoki tartibsiz kiyinish va ovqatlanish
kabilarini hayotida qo‘llashi mumkin. Natijada
bolalar o‘rtasida taqlid kuchayadi. Nega men
buni qila olmayman, degan savol kundalik tar-
tib-qoidalarini o‘zgartiradi.

Har yili “Xavfsiz internet kuni”ni 170 ga
yaqin mamlakat nishonlaydi va bu tadbirlar
orqali butun dunyo bo‘ylab millionlab odamni
qamrab olishga erishiladi. Internet bo‘yicha



Yevropa strategiyasi bolalarga yaxshiroq
va xavfsizroq onlayn muhitni yaratishga
yordam berish uchun moliyalashtirish,
muvofiqlashtirishda qator qo‘shimcha chora-
tadbirlarni taqdim etdi. Ularning asosiy vazifasi
vovaga yetmaganlar, ota-onalar va o‘qituvchilar
o‘rtasida xabardorlikni hamda raqamli
savodxonlikni oshirishdan iborat. Shuningdek,
mazkur strategiya bolalarni internetdagi jinsiy
zo‘ravonlik materiallaridan asrashga qaratilgan.

ENG ASOSIY NAMUNA — OTA-ONA

Internet — ta’lim-tarbiya uchun ulkan
imkoniyatlar maydoni. Faqat undan to‘g‘ri
foydalanish kerak. Har bir ota-ona farzandi
mustaqil fikrllovchi, dadil, uddaburon, chuqur
bilimli, qat’iyatli, mehribon bo‘lishini istaydi.
Bu esa o‘z-o‘zidan bo‘lavermaydi. Tarbiyani
bir zum ham unutmashlik bilan erishiladi.

Bola o‘qish-yozishni kitob, daftar bilan,
xulq, odob, kuchli xarakterni boshqalar
misolida, namunasida o‘rganadi. Ota-ona unga
birinchi ibratdir. Agar ota “Ovqatlanishdan
oldin ko‘lingni yuv”, deb o‘zi qilmasa,
bolangizni qancha urishsang, ong ostida otaga
taqlid qolaveradi. Chunki eshitlayotgan talab
va u ko‘rayotgan hayot orasida yildan paydo
bo‘ladi. Bu ziddiyat unda tushunmovchilik
va qarshilikni keltirib chiqaradi. Har bir
oilaning o‘z tarbiyaviy tushunchalari, muhiti
bor. Shuning uchun boshqalarda qandayligini
kuzatib, o‘rganib borish kerak.

Bolalar ta’lim-tarbiyasida biz ma’naviy va
ma’rifiy uyg‘onmas ekanmiz, farzandlarimizni
o‘zgalar “uyg‘otadi”. Natijada ma’naviyat
va ma’rifatdan yiroqlashgan jamiyatning
shakllanishiga sababchi bo‘lib qolishimiz
mumkinligini anglashimiz kerak. Ma’naviyatdan yiroqlashgan qalblarni yovuzlik
egallaydi, shuni unutmaylik!

Yangilik



Bugungi kunda “O‘zbekiston
metallurgiya kombinati” aksiyadorlik
jamiyati ishlab chiqarish va ijtimoiy
infratuzilma jihatidan rivojlanib,
yetakchi sanoat korxonalari safidan
mustahkam o‘rin egallamoqda. Keyingi
yillarda Prezidentimizning Bekobodga
uch marta tashrif buyurib, bu yerda
olib borilayotgan ishlar bilan yaqindan
tanishishi, shubhasiz, ko‘p ming
kishilik kombinat jamoasiga yanada
kuch-g‘ayrat bag‘ishladi.

Ayniqsa, 2017-yil 18-avgust kungi tashrif
faoliyatimizda katta tarixiy voqea bo‘lgan edi.
O‘shanda davlatimiz rahbari jamiyatimizning
yangi istiqbolli loyihalari bilan yaqindan
tanishib, ishlab chiqarish quvvati va moliyaviy-
iqtisodiy holatini tubdan yaxshilash chora-
tadbirlarini belgilab bergan edi. Shu davrdan
e’tiboran “O‘zmetkombinat”da ulkan

bunyodkorlik ishlarining yangi davri boshlandi.
Ya’ni faoliyatimizda bir qator ustuvor
vazifalar belgilanib, kombinatni mamlakatimiz
iqtsodiyoti hamda ijtimoiy hayoti uchun
manfaatli bo‘g‘inga aylantirish, ishlab chiqarish
quvvatlarini oshirish ishlari boshlandi.
Bu vazifalar qatorida ishlab chiqarishning
ekologiyaga salbiy ta’sirini kamaytirish



masalasi ham mavjud. Ma’lumki, jahonda har
yili qattiq maishiy chiqindilar miqdori aholi
jon boshiga nisbatan 1 foizga oshib bormoqda.
Energetika, rangli va qora metallurgiya, kimyo
sanoati va qurilish industriyasi obyektlari

chiqindi hosil qiluvchi, atrof-muhitni
ifloslantiruvchi asosiy manbalar hisoblanadi.
Tabiat muhofazasi me’yorlari tobora kuchayib
borayotgan bir davrda sanoat chiqindilari
utilizatsiyasi muammosi har qachongidan-

da dolzarb. Shu maqsadda kombinatda po‘lat
eritish jarayonida hosil bo‘ladigan shlak
qoldiqlarini qayta ishlashga alohida e’tibor
qaratilmoqda. Bugungi kunda issiq xoldagi
shlaklarni qayta ishlash, metall ajratib olish
texnologiyasi yo‘lga qo‘yilgan. Bu ham
ekologik, ham iqtisodiy jihatdan yaxshi samara
beradi. Ushbu texnologiya tufayli kombinatda
shlak uyumlarining hajmi kamayib, po‘lat
eritishdan qo‘shimcha xomashyo olish
ortmoqda.

Yutuqlarimiz qatorida “O‘zmetkombinat”
AJ va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ
hamkorligida ishlab chiqarish kooperatsiyasi
aloqalari doirasida O‘zbekistonda birinchi
marta og‘irligi 42 tonna bo‘lgan butlovchi
qism tayyorlanmasini ishlab chiqarish
o‘zlashtirilgani ham bor. 2022-yildan shu
paytgacha “O‘zmetkombinat” AJ tomonidan
jami 8 dona shunday butlovchi qism
tayyorlandi.


Bugungi kunda bozor munosabatlari metall
prokati mahsulotining sifatiga yuqori talablar



Ismadiyor MAMATQULOV,
“O‘zmetkombinat” AJ
matbuot xizmati mutaxassisi



Har qanday millat qiyofasining ikki muhim ko‘rki-ziynati bo‘ladi: biri milliy g‘urur, biri ona tili. Biroq dunyoda goh unisidan, goh bunisidan ayrilgan, ko‘p hollarda har ikkisidan ham mosuvo bo‘lib yashayotgan yoki atayin judo qilingan xalqlar, millatlar ko‘p.



Rustam BOYTO‘RA,
jurnalist

Dunyo tillari bo‘yicha yirik katalog — Ethnologue ma‘lumotlariga qaraganda, bugungi kunda dunyoda 142 ta til oilasiga mansub besh mingdan ortiq til mavjud. Eng achinarlisi, taxminan har oyda ularning ikkitasi yo‘q bo‘layotir. Chunki o‘sha tilni biladigan, shu tilda gapiradigan oxirgi inson vafot etmoqda.

Shukrki, ona tilimiz ham rasman o‘z o‘rnida, o‘z mavqeida. Bu Bosh qonunimizda o‘ta zarur maqomda muhrlab-ta’kidlab qo‘yilgan. Ammo ularni faqat surat kabi devorga osib qo‘yishning o‘zi yetarli emas, faqat darsliklar ichida-yu navbatdagi tadbirbozliklarda eslab turish kifoya qilmaydi. Bu ikki o‘zlikni jon kabi yurakda olib yurish, jon kabi ehtiyot qilish, oyoqosti

bo‘lishidan asray bilish lozim. Milliy g‘ururi, ona tili bo‘lmagan xalq va millatning joni ham yo‘q.

Bizda ko‘pincha vatan bilan davlat tushunchalari chalkashtirilib, yanglish anglanadi. Aslida, davlat muayyan hududda joylashgan mamlakat, boshqa ma’nosi — yurt taqdiri uchun mas’ul, uning kelajagiga javobgar boshqaruv tuzilmasi. Lekin el-yurtini sevish, bu tuyg‘ularimizni shakllantirishda biz hamma ishni davlat bajaradi, deb hisoblaymiz va shu yerda ulkan, tuzatib bo‘lmas xato qilamiz.

Davlat o‘z vakolati doirasida, masalan, ona tilini davlat tili sifatida qonunlarda belgilashi, uni mamlakat ichkarisi va tashqarisida himoya qilishi, behurmat qilganlarni jazolashi mumkin. Ammo eng kuchli davlat ham hech qachon xalqning yuragiga majburlab ona tilini sola olmaydi. Bu xalqning, millatning yuragi, tafakkuri va g‘ururiga bog‘liq.

O‘z ona tilini bilgan holda uni past baholab, ajnabiy tilda gapirishni fazilat sanaydigan, ajnabiy tilni bilmagani uchun millatdoshini qolqoq hisoblaydigan, qora ishchi bo‘lib musofirda yurgani sababli boshqalar tilida chala gapirib, kulgiga qolgan eldoshini himoya qilmaydigan millatda yuqoridagi aytilgan milliy g‘ururga putur yetgan bo‘ladi.

Keyingi paytdlarda, umuman, anchadan buyon alifboni isloh qilish masalasi bot-bot kun tartibiga chiqiyapti. Ammo uzil-kesil hal qilishga yo‘ davlat tomonidan rag‘bat yo‘q, yo xalqning irodasi yetishmayapti.

Ehtimol, alifboni isloh qilish muhimdir. Biroq undan oldin o‘sha alifboga, uning har bir harfida aks etadigan ona tilimizga, uning zamirida turgan



milliy g‘ururga, milliy g‘ururni paydo qiladigan o‘zligimizga hurmatni, dunyoqarashimizni isloh qilish zarurga o‘xshaydi.

Alifbo bilan butun-butan avlodlar savod chiqaradi. Ammo agar aks natija bersa, qancha-qancha avlodlar butunlay savodsiz bo‘lib qoladi. Shuning uchun unga olomonchilik kayfiyati yoki befarqlik munosabati bilan emas, donishmand xalq didi va aqli bilan yondashmoq lozim.

Quduqdan suv tortib ichish uchun hadeb arqonni yangilayvergan bilan unga bog‘langan chelak teshik bo‘lsa, urinishlar behuda ketaveradi.

Birovga birovni majburlab yaxshi ko‘rdirib bo‘lmagani kabi xalqqa ham o‘z vatani, ona tilini zo‘rlab sevdirlash imkonisiz. Aksincha, Vatan va ona tilini sevishi, ardoqlashi uchun xalqqa ko‘proq sharoit va rag‘bat berish, yaxshi ko‘rishi uchun sabablarni ko‘paytirish lozim.

Bu shunday holki, millionlab xalq ko‘radigan televideniye tilini nazorat qilmaslik, ona tili haqida botmonlab maqolalar e‘lon qilib, adabiy tilda gapirgan odamni kitobiylilikda ayblab masx aralash, bozorda yoki ko‘cha tilida paydo bo‘lgan, urfga kirgan yovvoyi so‘zlarni katta-katta idoralar minbarigacha chiqarish, ular yozayotgan jiddiy-jiddiy xat-yozuvlarga xalq kirishiga yo‘l qo‘yish...

Bular ikki holda ro‘y beradi: birinchisi — milliy g‘urur o‘lganda, ikkinchisi — befarqlik haddan ortganda.

Har narsaning muhimlik darajasi mavjud. Inson uchun, uning jismoniy holati uchun suv va havo qanchalik zarur bo‘lsa, insonlardan — fuqarolardan tarkib topgan jamiyat — xalq uchun vatan, til, milliy qadriyatlar shunchalik zarur. Biz esa bu tushunchalar non yoki puldek real moddiyat bo‘lmagani uchun ko‘p hollarda qiymatini bilmaymiz va muhimlik darajasini anglamaymiz.

Bir narsa aniq: dunyoda hech kim bizga qayg‘urmaydi. Ona vatanimiz, ona tilimiz, o‘zligimiz va qadriyatlarimiz uchun jon chekib o‘rtimaydi. Zamonaviy dunyoda do‘stlik yoki hamkorlik nisbiy tushuncha, ya‘ni ular manfaatlar ustiga quriladi. Buni bir-biri bilan talashayotgan davlatlar misolida ko‘rib turibmiz.

Demoqchimizki, bag‘rimizga do‘st qiyofasida kirib kelib, bizga uning tilida gapirishni avvaliga yumshoq iltimos qilayotgan, sekin-asta maslahat berayotgan, keyin esa haqdordek talab qilayotganlar tildan uy qurib bersa ham ularga hushyor qarashimiz zarur.

Ehtimol, tandimon o‘rniga “buterbrod” yoki “lavash” yeyishga o‘tsak, bu unchalik katta fojia emasdir, biroq o‘z tilimizni qo‘yib, kuchanib, ular tilida gapira boshlasak, bu chinakam fojia.

Buni bir butun xalq bo‘lib anglash uchun maishiy fikrlash darajasidan ijtimoiy fikrlashga o‘tish lozim. Ko‘rib turibmiz, hozir xalqning katta qismi tirikchilik tashvishida, uy-joy, mashina-ulov, to‘y-hasham dardida. Biz

***Termulaman Ilza xonimga,**
Ko‘zlarimga ishonmay hayron.
Amriqlik xushro‘y olim
So‘zlar edi o‘zbekcha ravon...
Keling, sizni ona yurt uchun
Fidolar bir tinglab quvonsin.
Bu quvonchdan lekin bir umr
Judolar ham quvonsin, yonsin...
O‘z elati mehrindan diling,
Yot tutganlar sizni ehsitish.
O‘z yurtida o‘z ona tilin,
Unutganlar sizni ehsitish.*

O‘lmas qadriyat

Yapon ayolga hunar o‘rgatgan Zuhra opa

Milliy brendlarimizdan biri – kashtachilik san‘ati, mashhur kashtachilar faoliyatini o‘rganayotgan chog‘imiz Yaponiya Fanlar akademiyasi ko‘rgazmalar zalida buxorolik xalq amaliy san‘ati ustasi, kashtado‘z Zuhra Obloberdiyevaning shaxsiy ko‘rgazmasi ochilganini eshitdik. Ancha-muncha hunarmand ko‘rgazma o‘tkazishi oson bo‘lmagan bu davlatga uni yaponiyalik ayol Yemi Imaxori taklif etgan.



Zuhra opa aqlini tanibdiki, kashtachilikka mehr qo‘ygan. Bu noyob san‘at yo‘qolib ketayotgan sobiq tuzum davrida ham Buxoro yahudiylari qahramonimizning onasiga buyurtmalar berib turgan. Bu esa Zuhra opaning kashtachilikka qiziqishi yanada oshishi, Nizomiy nomidagi pedagogika oliygohida rangshunoslik, badiiy grafikadan talisi olishi, tabiiy bo‘yoqlar bo‘yicha qayta o‘qishiga sabab bo‘ldi.

Kashtado‘z 1996-yilda tikkan so‘zanani amerikalik professor sotib olgandi. Qahramonimiz “Hunarmand” uyushmasining ilk a‘zolaridan biridir.

O‘ZBEK VA YAPON OILASINI YAQINLASHTIRGAN MEROS

2003-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi taklifi bilan yurtimizga kelgan Yemi Imaxori to‘g‘ri Zuhra Obloberdiyevaning uyiga yuboriladi. Etnograf Yemi xonim Zuhra opaning uyida ikki yil yashab, o‘zbek tili, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, pilladan nimalar olinishiyo bo‘zning qanday to‘qilishigacha o‘rgangan.

o‘rgandi. Onam, yaqinlarim bilan tanishdi. Men ham uning ota-onasi, oilasi bilan yaqin bo‘lib qoldim, hatto ular biznikiga mehmon bo‘lib kelgan, — deydi Zuhra Obloberdiyeva.

KASHTACHILIK MAKTABINING IFTIXORI

20 yildan oshdiki, Yemi xonim har ikki yilda universitetning osiyoshunoslik fakulteti talabalaridan o‘ttizga yaqinini O‘zbekistonga, Shofirkonga olib keladi. Ularga, avvalo, o‘zbekona qadriyatlar, qishloq ayollari bilan muloqot qilish, so‘ng tabiiy bo‘yoqlar bilan qanday ishlashni o‘rgatadi.

Yapon professori, shuningdek, Shofirkondagi O‘zbekistonda yagona kashtachilik maktabi tarixi haqida yozdi. Shu o‘rinda, biz ham mazkur maktab tarixiga qisqacha o‘xtalishni joiz bildik. 1992-yilda Buxoro viloyatida bo‘lib o‘tgan san‘at asarlari ko‘rgazmasida Zuhra Obloberdiyeva tarakan so‘zana hindistonlik professor janob Narayaning e‘tiborida tushib, uning xonadoniga tashrif buyuradi. Keyinchalik mamlakatimizda BMTning Taraqqiyot dasturi bo‘yicha harakatlarining amaliy ifodasi sifatida tumanda Zuhra Obloberdiyeva boshchiligidagi Shofirkon kashtachilik maktabiga asos solindi.

Zuhra opa shu paytgacha Hindiston, Qozog‘iston, Rossiya ko‘rgazmalarida faol ishtirok etdi. Moskva shahrida bo‘lib o‘tgan namoyish davomida Belgiya qiroli o‘zbek so‘zanalariga, kashta namunalariga qiziqish bildirib, ko‘ligul hunarmandni o‘z davlatida bo‘lib o‘tadigan ko‘rgazmaga taklif etadi.

Shundan so‘ng Belgiyaning O‘zbekistondagi vakolatxonasi yordami bilan Parij, Amsterdam, Gaaga, Bryussel, Bonn, Kann shaharlarida Shofirkon kashtalarini namoyish etib keldi.



Hunarmandning “bigizdo‘zi”, “qarsdo‘zi” kabi kashta uslublari qatorida yo‘qolish arafasida bo‘lgan “doldo‘zi” uslubini tiklash borasidagi harakatlari vatanparvarlikning bir qismini, aslida. Uning o‘zi atayganidek, 4-avlod sifatida onasidan qolgan boy merosni kunchiqar mamlakatgacha yetkazgani, ayniqsa, sharafl. “Onanimg, buvimning ishlari chet ellardagi muzeylarda saqlanayapti”, deydi hunarmand.

MEZBONLAR ILTIFOTI

Zuhra opa tilidan:

— Yemi xonim meni ko‘rgazmaga taklif etishini uch oy avval ma‘lum qildi. Qizimning ingliz tilida ravon gaplasha olinishi bilgani bois, uni gid sifatida chaqirdi. Yaponiyada bizni iltifot bilan kutib olishdi. Uzoq yurtdan hunarimizni namoyish etgani, mahorat darsi o‘tgan kelganimizni e‘tirof etib, keragidan-da ortiq mulozamat ko‘rsatishdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-qayam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 816.
44909 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

bojxonada muammo bo‘lmaydi. Bu borada ko‘p qiyinchiliklarga duch kelganimiz uchun yapon mijozlarimiz tutgan yo‘lni juda ma‘qul bildik.

OLDIMIZDAN OQQAN SUVNI HAM QADRLAYLIK

O‘zbek kashtachiligi bejiz dunyo ahli e‘tiborini tortmaydi. Zero, bu nafis san‘atimiz ildizi juda chuqur. Kashtachilikning qadimdan meros bo‘lib kelayotganini xalq og‘zaki ijodimiz namunalari ham tasdiqlaydi, dostonlarimizda alp yigitlarga oshiq bo‘lgan suluv qizlar o‘z qo‘llari bilan ularga atab kashta tiklani aytiladi.

Qadimda qizlarimiz turmushga chiqishidan avval o‘zi uchun so‘zana tikkan, kashta kelinlarning sepi hisoblangan. Badavlatroq oila qizlari shoyi, baxmalga, o‘rtahol oilalarda esa qizlar malla, qog‘ozga kashta tikkan.

Shuningdek, Amir Temur saroyida bo‘lgan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo o‘z esdaliklarida saroyda kashta bezaklarini tomosha qilganini yozgan bo‘lsa, Kamoliddin Behzod “Zafarnoma” qo‘lyozmasiga ishlagan “Temur taxtda” miniaturasida kashtali chodimi ham aks ettirgan. Milliy ruhda tikilgan so‘zanalar, gilamlar, kiyimlarda qadriyatlarimiz avloddan-avlodga o‘tib kelayotgani ko‘rinadi. Bugun ham xalqaro ko‘rgazmalarda, muzeylarda dunyo ahli hayratini oshirayotgan o‘zbek so‘zanalari, gilamlari rang-barangligi, serjiloligi bilan ajralib turadi.

Bu kabi yutuqlarda fidoyi hunarmandlarning hissasi beqiyos ekanini e‘tirof etgan holda, Zuhra Obloberdiyevaning o‘zi yashayotgan Ashobon qishlog‘ida kashtachilik uy-muzeyi ochib, turizmini rivojlantirishdek ezuq niyatini qo‘llab-quvvatlash kerak bo‘ladi.

Yoshi saksonga qarab ketayotgan Zuhra opa manaman degan kashtado‘zlar bilan bellashishga hamon tayyor. Zero, uning bu boradagi necha yillik tajribasi yaponiyalik bir ayolni professorlik darajasiga yetkazdi.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 22:58 Topshirildi — 23:45